ISSN: 2181-3035



Buxoro shahridagi Sitorai Mohi Xossa yodgorligi

TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 15

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Google Scholar | Cyberleninka | Zenodo | Advanced sciences index | Open AIRE

25.12.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

Aniq fanlar	Texnika fanlari	Pedagogika fanlari	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tabiiy fanlar	Iqtisod fanlari	Arxitektura	San'at va madaniyat fanlari
Tibbiyot fanlari	Filologiya fanlari	Qishloq xo'jaligi	Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

15-son 1-qism

25. 12. 2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g'oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Yusupova Iqboloy Axmed qizi
Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi 6-sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi. org/10. 5281/zenodo. 7470132

Annotatsiya: Ushbu maqolada daslikda berilgan Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasini o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim interfaol metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, dramatik asar, rollarga bo‘lib o‘qish, sahna ko‘rinishi, BBB, MMQ.

Biror asarni o‘rganishda uning muallifi haqidagi ma’lumotlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ma’lumotlar ko‘pincha asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashga, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to‘g‘ri belgilashga yordam berishi mumkin. Taniqli yozuvchi Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi haqida gap ketar ekan, u o‘z asarini 1944-yilda, ikkinchi jahon urushining qizg‘in bir davrida yaratganini aytib o‘tishimiz lozim. Drama o‘tmishda chet el bosqinchilarigaqarshi xalqimiz olib borgan mardonavor kurashning yorqin sahifalarini sahna asari shaklida yoritish va uni xalqimizning fashizm bilan olib borgan kurashi o‘rtasidagi mushtaraklikni ko‘rsatish borasida muhim targ‘ibiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida dramatik asarlarni o‘rganishda avval ularning matni bilan tanishish amalga oshiriladi, albatta. “Jaloliddin Manguberdi” dramasini tushunishdagi yengillikni ta’minlaydigan birinchi qadam rollarga bo‘lib o‘qish bilan aloqador. Ammo bu ham o‘z-o‘zicha, osonlik bilan amalga oshmaydi. Rollarga bo‘lib o‘qish uchun ham jiddiy tayyorgarlik kerak, zero har bir asar qahramonining o‘ziga xos xususiyatlari, uning ruhiyatidagi mavjud holat teran ilg‘anishi, ularning har biriga xos bo‘lgan xatti-harakat va hatto ovozning tezligi, baland-pastligi ham ahamiyatli bo‘ladi. Bu jarayonlarda o‘quvchilarning muallif g‘oyalarini tushunishi, muallif bilan birgalikda kashf etib borishi kerak bo‘ladi.

Darslikda berilgan dialogli ertaklar yoki sahnada qo‘yishga mo‘ljallangan asarlarni o‘qitishda azaldan rollarga bo‘lib o‘rganish bizga an’ana bo‘lib qolgan. Ammo agar imkoni bo‘lsa, sahnada ko‘rish yoki tasmaga yozilgan varianti bilan tanishish juda samarali ish turi hisoblanadi. Chunki sahna asarini sahnada ko‘rish kutilgan natijaning maksimal samarasini ta’minlaydi. 8-sinf adabiyot darsligida Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi berilgan bo‘lib, ushbu

asarning mazmun-mohiyatini bir soat dars davomida o‘quvchilarga yetkazib berish ancha ancha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning ham ushbu vaziyatda videolavha yoki sahna ko‘rinishining o‘rni katta. O‘quvchilar asarning eng ahamiyatga molik qismini o‘z ko‘zlari bilan tomosha qilganlaridan keyin darslikdagi matnni to‘lig‘icha o‘qib ko‘rishga qiziqishlari ortadi, albatta. Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland pastligi katta ahamiyatga ega bo‘lib, nutqning o‘ziga xos bu xususiyati sahnada yanada aniqroq ko‘rinadi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ushbu mavzuni tushuntirishdan oldin O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi “Mendurman Jaloliddin” taronasidan bir parcha qo‘yib eshittirish o‘quvchilarga ko‘tarinki ruh va o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi.

Jaloliddin Manguberdi tarixiy shaxs hisoblanadi. O‘tmishda Chingizxonday qudratli kuchga qarshi tura olgan, mardonavor kurashgan Vatan tirgagi – Jaloliddin Manguberdining qahramonligi tragediyada Maqsud Shayxzodaning sahna asari yaratish bobidagi mahorati tufayli Manguberdi yashagan ziddiyatli davr, kishilar hayoti aniq, jonli, jozibador va eng muhimi ishonarli tasvirlangan. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, 8-sinf o‘quvchisi asarda keltirilgan ma’lumotlarning ba’zilarini radio-televideniye orqali eshitgan, ko‘rgan yoki badiiy kitoblar va tarix darslarida o‘qigan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shu bilan birga o‘quvchi dramani o‘rganish davomida yangi va o‘ziga qiziq bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lib olishi hamda ongida ba’zi savollar ham tug‘ilishi mumkin. Shuning uchun darslikda berilgan matnni o‘qib tugatgandan keyin “BILAMAN, BILISHNI XOHLAYMAN, BILIB OLDIM” (BBB) GRAFIK ORGANAYZERIdan foydalanish o‘rganilgan mavzuni mustahkamlashning eng qulay usullaridan hisoblanadi. O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

BILAMAN	**BILISHNI XOHLAYMAN**	**BILIB OLDIM**

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “MUSBAT, MANFIY, QIZIQARLI” (MMQ) STRATEGIYASIdan foydalanishimiz ham mumkin. Ta’lim jarayonida MMQ metodini qo‘llash o‘quvchilarning ma’lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e’tiborni qaratish, ularning salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e’tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o‘rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Uni qo‘llash sxemasi quyidagicha:

1-bosqich	**mavjud vaziyatning faqat ijobiy jihatlari aniqlanadi.**
2-bosqich	mavjud vaziyatning faqat salbiy jihatlari aniqlanadi.
3-bosqich	mavjud vaziyatning faqat qiziqarli jihatlari aniqlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dramatik asarlar sahnaga moslab yozilgan bo‘ladi. Yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so‘zlari va xarakterlari vositasida ko‘rsatiladi. Shuning uchun o‘qituvchi darsni to‘g‘ri tashkil qilishi, turli interfaol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarni tashkil etish, yo‘naltirish boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkonini qo‘lga kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi, Barkamol fayz media, -Toshkent.: 2018.

DEVELOPING THE MUSICAL ABILITY OF STUDENTS IN MUSIC CULTURE LESSONS

Abdullaev Rustam Ubaydullaevich
National Center for Training Teachers
on New Methods of the Republic of Karakalpakstan
https://doi. org/10. 5281/zenodo. 7470142

Abstract: This article describes the theoretical basis for the formation of students' musical abilities in the lessons of music culture in primary school on the basis of types of musical activities. It also provides detailed information on the types of musical activities.

Key words: music culture, elementary education, musical ability, skill, types of musical activity.

Today, fundamental socio-political changes in our country have an impact on the music education system. Solving the problem of raising a person to become a perfect person in all respects is the need of the times. At the same time, education of young people in the spirit of respect for our national musical heritage and love for the motherland are tasks that cannot be minimized. We came to the following conclusions in our graduation work on the topic of creative activities in music education and their teaching methods.

Music education can be conventionally divided into two stages. The first is the preparation stage. The main goal is to develop the student's musical skills. During this time, the student should learn to distinguish specific features of musical sounds, such as pitch and duration, and prepare to learn musical notation. At the second stage, one begins to learn musical notation, i. e. direct representation of musical sounds in a graphic way - musical notation. In the process of music training, the child perceives the reality of life through musical images.

Age-appropriate musical works leave an unforgettable impression on children and enrich their spiritual world. Musical education in kindergarten is carried out in an integral connection with fiction and visual arts. The way of chanting, listening to musical works of the genre, in particular instrumental pieces with a plot, playing musical games and dancing, music training is often defined by the artistic word. Visual art works are usefully used so that the child can vividly imagine and deeply perceive artistic images.

Each music lesson conducted using different methods arouses artistic aesthetic pleasure in children, develops their feelings, develops creative thinking and speech. In addition, musical games and postanovkas, dances develop the student's sense of

rhythm, agility and mobility skills, and help the correct growth of height. Music learning ability mainly consists of the following types of music learning: musical learning, the ability to feel the pitch and lowness of musical sounds, timbre learning (the ability to distinguish different and unique aspects of musical sounds), sense of rhythm and music. memory.

The main goals and tasks of music education can be defined as follows:

• To increase the student's interest in music and teach him to love it.

• Enriching students' imaginations about music by creating emotional feelings in the process of introducing them to musical works.

• To introduce the student to the concepts of simple music, to listen to music, to sing, to act with music, to dance, and to develop the student's ability to play tunes on simple musical instruments and develop his creative ability.

Nurturing the student's voice, forming the initial skills of singing, teaching to sing songs simply, fluently, freely, naturally and expressively.

• Being influenced by musical works, developing the student's musical taste and artistic discussion skills on this basis.

• Improvisation in the process of various music lessons, expressing the artistic image in music by means of games and choral voices, inventing a new game for a certain musical theme.

Music is an integral part of our daily life by connecting musical education activities with kindergarten life, widely using tunes and songs learned in various activities and ceremonies held in kindergarten, organizing various mornings and concerts. To make the student understand that he is a friend.

Listening to music in different groups. Being able to listen to music and enjoy it aesthetically is a great art. A person's culture of listening to music begins to develop from a young age. Listening to music in kindergarten is its foundation. The child already listens to music and perceives it during all elements of music training. But the music listening part of the training has its own serious tasks. First of all, it should be remembered that a person's ability to listen is much wider than his ability to sing. For example: works performed by an orchestra, choir, and solo instruments can only be understood by listening, not by singing. Therefore, scientists pay special attention to listening to music in the process of musical education.

Because listening to music, skills and abilities play a big role in the formation and development of a person's musical culture. When listening to music, the student's artistic perception develops well. The music listening part of the lesson is preceded by the following tasks:

1) Acquaint the student with samples of folk classical and modern music suitable for his perception;

2) Developing the student's ability to perceive music; To learn to give basic information about music, to remember the names of the works, to distinguish between their content, character and means of expression, and to give a certain amount of artistic evaluation to the works listened to.

Music literacy - it is known that music literacy in the music lessons of general education school is different in that it consists of a complex knowledge about music. Along with the musical notation elements studied in the process of chanting, the musical literacy includes musical genres, their forms and structures, means of expression, concepts of the essence of folk and composer's music, types of performance, musical instruments and their sound timbres, etc. In the process of music education and upbringing, the musical literacy of students should be formed on the basis of this set of knowledge. It is the main component of music culture.

Listening to music - the activity of listening to music in the lesson plays a big role in enriching students' musical impressions, expanding their imagination, developing their listening skills and developing their musical taste. In this type of activity of the lesson, the students will listen to the exemplary performance of the rarest musical works performed by the music teacher, using an electrophone and a tape recorder. Choir, orchestra, ensemble and soloists perform classical works of various genres, they step into the great arena of art for the first time.

Music education includes listening to music, memorizing songs, performing various movements with music, playing musical instruments, reading books about music and musicians, attending theater, concerts, etc. 'consists of learning. Listening to happy music of elementary school students with pleasure, playing musical instruments with interest and performing songs and dances is the basis of the work carried out to educate their interest in music. Active listening to music forms performance skills in the student. Discussions after listening to music have a great educational value, the teacher creates and strengthens the spirit of mutual recognition and mutual trust between students.

References:

1. Karimova D. Fundamentals of musical pedagogical skills. - T.: Economy-finance, 2008.

2. SH. Aripova G.. Music and its teaching methodology (methodical manual). Tashkent.

3. Akbarov I. Dictionary of music. Tashkent - 1997.

MULTIMEDIALI WEB ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

Bayramova Shohida Dilshodbek qizi
TATU Urganch filali 4-bosqich talabasi
shohidaubtuit@gmail. com +998905582876
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487312

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada multimedia web ilovalarini yaratish, texnologiyasini o‘rganish ularni qanday yaratilishini ifodalovchi ssenariy ishlab chiqish haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Bundan kelib chiqib, har bir multimedia web ilovasi turli tarkibiy qismlar tashkil topgan. Multimediali web ilova interaktiv elementlarga ega sayt hisoblanadi, ular foydalanuvchilarga o‘zaro muloqot qilishiga imkon beradi. Maqolada multimediali web ilova tarkibi haqida qisqacha tariflar va sayt yaratish haqida ma’lumot berilgan. Saytda html, css, javascript, phpMyadmin dasturlash tillaridan foydalanib elektron darslik yaratamiz, bu sayt o‘quvchilarni masofadan turib ham dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi. Saytda audio, video, rasmlar, o‘quv qo‘llanmalardan foydalanamiz.

Kalit so‘zlar: Multimedia, animatsiya, taqdimot, ilova yaratish, o‘yinlar, tasvir, matn bloki, multimediali dastur, web sayt, dasturiy ta’minot, chiziqli multimedia, promrolik intro rolik.

Multimedia ilovalari tarkibini quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin. Yaratilayotgan multimedia ilovasi uchun mavzu tanlash, ish maydonini belgilash(masshtab va fon) kadrlar, qatlamlardan foydalanish, turli shakllar simvollarni yaratish, dasturlash tilida o‘zgaruvchilar kiritish va skriptlar yozish, tovushli fayllar bilan ishlash, matn qo‘shish, effektlar yaratish, rasmlardan foydalanish va import qilish, kutubxonadagi tayyor komponentlardan foydalanish, navigatsiyani yaratish, matn razmetkasi tillari va skriptlash tillaridan foydalanish.

O‘z navbatida multimedia ilovalarini quyidagi turosti turlarga bo‘lish mumkin. Multimedia ilovalarining turosti turlarining asosiy tushunchalari. Taqdimot:

- Chiziqli taqdimot-murakkab grafika, videoqo‘yilma, ovoz jo‘rligidagi va navigatsiya tizimiga ega bo‘lmagan dinamik ro‘lik.
- Interfaol taqdimot-iyerarxik tamoyillar bo‘yicha to‘zilmaga keltirilgan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimediali komponentlar to‘plami.

Animatsiya:

- Kadrlar animatsiyasi-tasvirlar harakati tassurotini beradigan suratlarning kadrlar bo‘yicha almashishi.

•Dasturiy animatsiya –dasturlangan amallar ketma ketligi yordamida tasvirlar almashadigan animatsiya (ya’ni algoritm va o‘zgaruvchilar yordamida). Asosiy ob’yektlarni chizish qo‘lda amalga oshiriladi yoki biror bir kolleksiya yoxud galereyadan import qilib olinadi, shundan keyingina unda qaysidir dasturlash tili imkoniyatlari ishga solinadi.

O‘yinlar:

•Ko‘ngil ochuvchi o‘yinlar –foydalanuvchiga bo‘sh vaqtini o‘tkazishga imkon beradigan dasturlar.

•O‘rgatuvchi o‘yinlar –taqdim etilgan yengil o‘yin shaklida foydalanuvchiga u yoki bu soha bo‘yicha o‘z malaka va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturlar.

Video o‘qish qurilmalari:

•Film kadrlari harakatini shakllantirish harakat tassurotini uyg‘otuvchi rasmlar, kadrlar ketma ketligini, tasvirlarini tayyorlash va joylashtirish.

•Videotasvirlar oqimini o‘qish qurilmasi videooqim formatlari avi, mpeg, v. b. ni o‘z ichiga olgan o‘qish qurilmasini shakllantirish, shundan keyingina ushbu oqimni boshqarish imkoniyati tug‘iladi (masalan, videofaylni ishga tushirish pauza, video boshiga tez o‘tish kabi buyuruqlarni ishlatish).

Multimedia –galereyalar:

- Tasvirlarning kadrlarda almashishi –tasvirlarning belgilangan vaqt oralig‘ida almashish tartibi.
- Panorama –katta ochiq maydonni erkin tamosha qilishga imkon beruvchi keng va kata plandagi manzara.
- Interfaol galereya –foydalanuvchiga boshqarish imkonini beradigan galereya (tasvirlar bo‘yicha harakat).

Tovush o‘qish qurilmalari:

- Bitta ovozli fayl o‘qish qurilmasi –wav, mp3, va boshqa formatdagi ovozli faylni multimedia ilovaga qo‘shish va uni qaytadan eshitish.
- Turli ovozli fayllarni o‘qish qurilmasiga o‘xshash, lekn bajarish ketma ketligini o‘zgartirish imkoniyati qo‘shilgan holda bajariladi.
- Virtual musiqa instrumentlari –haqiqiy musiqa instrumentlari imitatsiyasi.

Web uchun ilovalar:

- Bannerlar-internetdagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining veb saytiga yoki maxsulot yoxud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalb etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljitish uchun turli internet resurslarda joylashtiriladi.
- Ma’lumot uzatish ilovalari masalan mehmonlar kitobi.

Multimediali mahsulot yaratish uchun ko‘plab texnik instrumentlar mavjud.

Yaratuvchi gipermatn sahifalarini yaratishda ishlatiladigan dasturni tanlab olishi kerak. To‘liq funksional multimedia dasturlarini yaratishga imkon beruvchi bir qator kuchli multimedia yaratish vositalari mavjud. Macromedia Director, Macromedia Flash yoki Authoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professonal va qimmat vositalar hisoblanadi, shu bilan birga FrontPage, mPower 4. 0, HyperStudio 4. 0 va Web Workshop Pro ularning oddiyroq va arzonroq analoglari hisoblanadi. PowerPoint va matn muharrirlari (masalan, Word) kabilardan ham chiziqli va chiziqsiz multimediali resurslar yaratishda foydalanish mumkin. Borland Delphi ham multimediali ilovalar ishlab chiqish vositasi hisoblanadi. Sanab o‘tilgan vositalar oson o‘qish va tushunish mumkin bo‘lgan to‘liq hujjatlar bilan ta'minlangan. Albatta, yana ko‘plab boshqa ishlab chiqish vositalari borki, sanalganlar o‘rniga ulardan foydalanib ham bir xil natijaga erishish mumkin.

Hozirgi kunda multimedia ilovalari yaratish texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar juda kam, ularni topishning iloji ham yo‘q. Ushbu mavzuda darslar, kitoblar va maqolalar to‘plamiga ega bo‘lgan Internet tarmog‘i sahifalari ham shunday tizimlarga o‘xshaydi. Bunday saytlarning asosiy qismi “Multimedia elementlari yaratish uchun flash darslari” yoki Macromedia Directorda multimedia yaratish” mavzulariga yo‘naltirilgan.

Multimedia taqdimoti turlari interfaol multimedia taqdimoti –iyerarxik tamoyil asosida tizimlangan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan shartmultimedia komponentlari majmui hisoblanadi.

Foydalanish maqsadidan kelib chiqib, interfaol taqdimotlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

korparativ multimediali taqdimot;

multimediali katalog;

mahsulot taqdimoti;

o‘rgatuvchi yoki test dasturi;

erkin foydalanishga ruxsat berilgan kompyuterlar uchun multimedia qobig‘i;

elektron nashr yoki multimediali kitob.

Chiziqli multimedia taqdimoti –murakkab grafika, videoqo‘yilma, ovoz jo‘rligi taminlangan va navigatsiya tizimiga ega bo‘lmagan harakatli rolik.

Chiziqli taqdimotlar mo‘jallanishiga ko‘ra shartli ravishda quyidagi shakllarga bo‘linadi:

Stend shaklidagi multimedia taqdimoti;

Elektron doklad yoki jo‘rlikdagi taqdimoti;

Sales-taqdimot;

Promo rolik;

Intro rolik;

Ekran himoya lavhalari (screen savers).

Shakillantirilgan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlarida ularni boshqarish bo‘yicha foydalanuvchi imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. ”ScenePro2” tizimi yordamida taqdimotga uyidagi funksional imkoniyatlar joriy etilmoqda:

1. multimedia taqdimotining daraxt shaklidagi tuzilmasini shakllantirish;
2. ssenariylarni shakllantirish-daraxtning har bir bosqichi uchun taqdimotning mazmuniy qismlarni ko‘rsatish ketma ketligini tanlash;
3. namoyish etish uchun tayyor ssenariylardan foydalanish;
4. ovoz jo‘rliklarini alohida boshqarish.

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlari o‘z ichiga interfaol va chiziqli multimedia ilovalari imkoniyatlarini birlashtirishi mumkin.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi ulardan asosiylari quyidagilar: rejalashtirish, elementlarni ishlab chiqish, dasturiy ta’minot, tekshirish, e’lon qilish, reklama, kuzatuv.

Ushbu bosqichlarda bajariladigan ishlarni ko‘rib chiqamiz.

Rejalashtirish.

Rejalashtirish bosqichida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

1. Multimedia ilovasi nimaga mo‘jallangan?
2. Multimedia ilovasi qaysi auditoriyaga yo‘naltirilgan?
3. Multimedia ilovasiga qanday ma’lumot joylashtiriladi?

Elementlarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: navigatsiya tizimini ishlab chiqish, taqdimot uchun WEB sayt yoki slaydlarning dizaynini ishlab chiqish, sahifalarni to‘ldirish uchun matn va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash (jadvallar, grafiklar, rasmlar va boshqalar).

Dasturiy ta’minot.

Ushbu bosqich multimedia ilovasi sahifalarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Tekshirish.

Multimedia ilovasini yaratishning asosiy bosqichlaridan biri uni tekshirish hisoblanadi. Tekshirish jarayonida multimedia ilovasining to‘g‘ri ishlashi tekshiriladi, jumladan:gipermurojaatlarning to‘g‘ri ishlashi, matn va ko‘rgazmali materiallarda xatolarning mavjud emasligi, multimedia ilovasi sahifalari bo‘ylab navigatsiyaning qulayligi, pochta va boshqa shakllarning to‘g‘ri ishlashi(WEB-sayt uchun), grafik fayllarni yuklashning to‘g‘riligi (WEB-sayt uchun), saytning turli brauzerlarda to‘g‘ri ishlashi (WEB sayt uchun).

Multimediali pedagogik master shablon nashr qilish tekshirish bosqichi tamomlagandan keyin WEB-sayt provayder serverga joylashtirilib, internetda nashr qilinadi va yana qaytadan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Multimedia ilovasi reklamasi WEB-jamiyat yangi e’lon qilingan multimedia ilovasi haqida bilishi uchun sayt adresi va veb saytga joylashtirilgan materiallar haqida annotatsiya orqali xabardor qilish kerak. Buning uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalaniladi: veb sayt manzilini xatga, tashrif qog‘oziga, broshyuralarga, byullenten, bukletlarga, maxsus kompyuter nashrlariga, internet resurslarining “Sariq sahifalar” sonlariga va boshqa nashrlariga kiritish.

Mashhur izlash saytlarida veb saytni ro‘yhatdan o‘tkazish, veb saytlarda ishorat(ssilka) joylashtirish, veb sayt reklamasi uchun bannerlardan foydalanish. Kuzatib borish (WEB-sayt uchun).

Web –saytga murojaatlar uning nashr etilishi va reklamasidan so‘ng sezilarli darajada unga joylashtirilgan ma’lumotlarning foydaliligi, yangiligi va aktualligi bilan belgilanadi. Web –sayt imidjini saqlab turish uchun undagi ma’lumotlarni doimiy yangilab borish tavsiya etiladi, aks xolda saytning o‘rgimchak to‘rida necha yillardan buyon yangilanmagan saytlar ham mavjudligini ta’kidlaymiz.

Texnologik bosqichlar mazmuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator ishlar va asosiysi bu ishlarning natijasi pedagogik multimedia master-shabloni namoyish shakliga bog‘liq emas. Buni quyidagi chizma ko‘rgazmali ravishda namoyon qiladi. Veb –saytlar uchun maxsus bo‘lgan “Publikatsiya “, ”Reklama”, ”kuzatib borish “bosqichlari yo‘q.

Web–saytning yaratilishi murakkab muammo bo‘lgani sababli, uni kompleks shaklda qurib chiqish kerak. Web–sayt ishlab chiqilguncha yechilishi zarur bo‘lgan asosiy savollar quyidagilardan iborat va ularga javob topishga harakat qilamiz. Shunday qilib, web–saytni joylashtirish, quvvatlash va uning harakatiga tegishli savollar bilan web–sayt tadqiq qilinguncha tanishib chiqmoq zarur.

Web–saytning auditoriyasi. Internetdagi zaruriy va maqsadli guruh etarli miqdordami? Uning parametrlari (jinsi, yoshi, ma’lumoti, qiziqishi va b. q) qanday? Kim uchun bu ishni qilyapsiz va odamlar internetdan foydalanadimi? Har bir Web–sayt asosan tashrif buyuruvchilar uchun yaratiladi. Hammaga ma’lumki, hozirchalik O‘zbekistonda internetdan aktiv foydalanuvchilar soni yuqori emas. Bundan tashqari, ko‘plab foydalanuvchilar respublika tashqarisidagi axborotlarni qidirish maqsadida internetga kirish uchun haq to‘laydilar. Shunday qilib, eng ko‘p tashrif buyuruvchi Web–saytlarga rus–zabon va ingliz–zabon auditoriyalar, ya’ni eksport–import operatsiyalari, turizm transport bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar kiradi. Veb saytning auditoriyasi kengaytirish maqsadida turli xil interaktiv xizmatlarni joriy etib bormoqda. Bu shuni ko`rsatadiki veb saytning auditoriyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, moliyaviy mablag‘ topish ham shunchalik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Lekin, keyingi paytda O‘zbekiston auditoriyalariga yo‘naltirilgan ko‘plab Web–saytlar paydo bo‘lmoqda. Tabiiyki, ulardan faqatgina internetda real holatdagi auditoriyalarga mo‘ljallanganlari tashrif buyuradilar.

Web saytda o‘quvchilarni qiziqtirish maqsadida turli yorqin rasmlardan va qiziqarli videolardan foydalanamiz ularni oson o‘zlashtirishi uchun mavzuga doir o‘yinlar, testlar, metodlar, jadvallardan ham foydalanamiz.

Web–saytni joylashtirish (xosting). Xostingni tanlashda internet provayder imkoniyatini, ya’ni kanalning o‘tkazish qobiliyatini inobatga olish kerak bo‘ladi. Bir vaqtda qancha tashrif buyuruvchilar web–saytga kira olishi mana shu ko‘rsatkichga bog‘liq bo‘ladi. Provayder kanali turli xil mamlakat va mintaqadagi foydalanuvchilarga bir xil yaxshi va qulay bo‘lishi kerak. Xosting sifatiga ta’sir etuvchi boshqa parametr–bu web–server unumdorligi hisoblanadi. Xosting vakolati sanalgan kompaniya bilan saytning ommaviyligi (tashrif buyuruvchilar soni) oshgan taqdirda kanalning o‘tkazish qobiliyati va web–server unumdorligini mos ravishda oshirish to‘g‘risida kelishib olish kerak bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON TARIXINI DAVRLASHTIRISH MASALALARI

Murodova Gulzora Turobovna
Navoiy viloyati Nurota tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487316

Annotatsiya: Maqolada tarix fanining davlashtirilishi va nima sababdan tarix davrlarga bo‘lib o'rganilishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Moddiy, ma’naviy, ibtidoiy jamoa,komunistik,milodiy , davrlar, ibtidoiy to‘da, matriarchy, patriarxat, urug'chilik.

Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonimiz tarixini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni chuqurroq o‘rganish imkonini bermoqda. Tariximizdan faxrlanish va xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Mirziyoyev Sh.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy evolutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek. O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo'lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi.

Har bir davr o‘ziga xos iqtisodiy, siyosiy asosga, moddiy, ma’naviy va madaniy turmush tarziga ega. Har bir tarixchi davrlar xususiyatlarini aniq bilishi va talqin qila olishi lozim. Davrlar xususiyatini to‘liq anglash tarixiy voqealarni haqqoniy baholashda va o‘sha davr ruhiyatini to‘liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixida har doim ham bugungi yillar tizimidan foydalanilgan emas. Har bir davrda har bir xalq o‘zining yashagan davrini turlicha yil hisobini olib borganlar. Bu yil hisoblarini o‘rganish va tadqiq qilish ham tarixchilarning burchlari hisoblanadi. Bu davrlarni aniqlash orqali tarixchilar mazkur voqealar qachon ro‘y berganini aniqlaydilar. Lekin bu jarayon tarixchi olimlardan ko‘p mehnat va izlanish talab qiladi. Ba’zi yozma manbalardagi yil hisoblarini aniqlash haligacha noma’lumligicha qolmoqda va tarixchilar orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Tarixni davrlarga bo‘lib o‘rganish masalalarini qadimgi davr mualliflari asarlarida ham uchratamiz. Bu masala keyinchalik XVIII-XIX asrlarda ham keng muhokama mavzusi bo‘lib kelgan. Bu ma’lumotlarni talablarga keng taxlil qilingan holda berish lozim. Bu orqali ularda tarixiy taraqqiyot jarayoni taxlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi

XIX asr o‘rtalaridan tarixni ishlab chiqarish usuli va mulk xarakteriga qarab davrlashtirish g‘oyasi ilgari surildi. XX asrda bu g‘oyalar kommunistik g‘oyaga moslashtirilib rivojlantirildi. Butun insoniyat tarixi 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm kabi taraqqiyot yo‘llarini bosib o‘tgani va bosib o‘tishi lozimligi ta’kidlandi. Bu g‘oya barcha ilmiy adabiyotlar va darsliklarda o‘z aksini topdi. Lekin jamiyat taraqqiyoti tarixni bunday davrlashtirish noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. Jamiyat taraqqiyotida har bir hududning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini har tomonlama chuqur o‘rganish va ularni obyektiv, aniq, birlamchi manbalar asosida tadqiq qilish va xulosa berish zarurligini davrning o‘zi isbotlamoqda.

Tarixga nazar solsak, jahonning ba’zi davlatlarida ibtidoiy jamoa tuzumi uzoq davom qilganining, qadimgi davr ham turli hududlarda turlicha kechgani, o‘rta asrlar va yangi davr ham turlicha kechganining guvohi bo‘lamiz. Shu sabab bu davr sanalarini barcha mamlakatlar uchun bir xil deb hisoblash va bir sanalarni berish mumkin emas. Bugungi kunda jahon miqyosida tarixni umumiy, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy o‘ziga xosligini inobatga olgan holda quyigacha davrlashtirish ilgari surilmoqda. Bu davrlashtirish uslubidan maktab darsliklarida ham, tarix fanlarini davrlarga bo‘lishda ham keng foydalanilmoqda. Bu tarixni tarixiy jihatdan bo‘lish deb qarasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarixda eng qadimgi davr 2 davrga ajratilib o‘rganiladi. Bu davr tarixiy jihatdan ikkita yirik davr: “ibtidoiy to‘da” va “urug‘chilik jamoasi davri”ga bo‘linadi. O‘z navbatida urug‘chilik jamoasi 2 bosqichga: matriarxat (ona urug‘i) va patriarxat (ota urug‘i) ga bo‘linadi.

Qadimgi davr mil.avv. VI asrdan milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, u 2 bosqichga bo‘linadi:

1 – arxaik davr - mil.avv. VI–IV asrlar.

2–antik davr - mil.avv. IVxirlaridan - milodiy IV asr.

O‘rta asrlar davri o‘z rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga bo‘linadi.

1– ilk o‘rta asrlar- milodiy V– IX asrlar

2– rivojlangan o‘rta asrlar - milodiy IX– XVI asr boshlari

3– so‘nggi o‘rta asrlar - milodiy XVI o‘rtalaridan –XIX asrlar o‘rtalarigacha Yangi davr XIX asr o‘rtalaridan XX asrning 90 yillarigacha bo‘lgan davrni o‘zida qamraydi. Bu davr ikki bosqichga bo‘linadi:

1 - Chor Rossiyasi mustamlakasi davri XIX asr o‘rtalaridan 1917- yilgacha

2 - Sovet hokimiyati hukumronligi davri 1917 -yildan 1991- yil 31 –avgustgacha O‘zbekistonning mustaqillik davri 1991- yil 31 -avgustdan bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarix fanining davrlashtirib o‘rganilishi o‘quvchilarning tarix fanini oson o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi**.**

UMUMIY O`RTA TA’LIM TEXNOLOGIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Hayitova Muqaddas Eshboyevna
Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani
10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Texnologiya fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487318

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada texnologiya ta’limi haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o'rni va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiylardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, ta’lim tizimi.

Umumiy o‘rta ta’limda “Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lasiz.

Shuningdek, quyida biz tanishishimiz mumkin bo‘ladi o‘quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo‘ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o‘tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog‘liq umummehnat ko‘nikmalari har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a’zosining bilim va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko‘nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda. Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlartomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrli boshqa ne’matlar yaratilgan. Siz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagan kasbingizni mukammal egallab, bu taraqqiyotga o‘z hissangizni qo‘shasiz deb umid qilamiz. Bu vazifalarni uddalashingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo‘llashning asosiy bo'limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to‘liq o‘rganasiz. Shuni e’tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar ham o‘rganadilar. Siz mashg‘ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko‘plab sohalarga oid kasb-hunar turlari bilan tanishasiz. Ta’lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogic texnologiya, texnologik yondoshuv, ta’limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so‘z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta’riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so‘zining ma’nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so‘zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zida uni «texno» - hunar yoki san’at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san’ati haqidagi fan sifatida e’tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo‘lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta’limi» o‘quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta’lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman. Bundan tashqari, o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

- ❖ materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;
- ❖ texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;
- ❖ texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;
- ❖ texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- ❖ texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv q o ‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.

JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DARSLARI INTEGRATSIYASI

Ajimov Eradil Abdimuratovich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487323

Annotatsiya: Maqolada Jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslarini integratsiya qilishning maqsadli komponenti, - o‘quvchi-yoshlarni jamoatchilik faoliyatiga va harbiy-jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga va sportning harbiy-sport turlari bo‘yicha shug‘ullanishga jalb qilish kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, dars, integratsiya o‘quvchi, o‘qituvchi, sinf, ta’lim.

Jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslarini integratsiya qilishning maqsadli komponentini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’lim jarayonini yuqori sinf o‘quvchilarini Qurolli kuchlar safida xizmat qilishga har tomonlama va to‘laqonli tayyorlashda majmuaviy yo‘nalganlik tamoyilidan foydalanish

Mazkur tamoyilning muhimligi shundan iboratki, pedagoglar, ta’lim jarayonida harbiy va jismoniy tayyorgarlik sohasida bilim va malakalarni shakllantirishga hamda intellektual qobiliyatlarni, bo‘lajak askarning irodaviy va hissiy sohalarini bir vaqtda rivojlantirilishiga orientirlanishsin. Ushbu tamoyilni amaliyotda jismoniy tarbiya va CHaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslari vazifalarini majmuaviy rejalashtirish yo‘li orqali amalga oshirish, bir vaqtning o‘zida ancha keng doiradagi vazifalarni echish va o‘quv jarayonini natijaviyligini va har tomonlama samaradorligini oshirish bilan jadallashtirish imkonini beradi.

Ta’limning majmuaviy yo‘nalganligi tamoyilini hal qilish, pedagog integratsiyalangan ta’limni asosiy maqsadi va vazifalarini yaxshi bilishini, har bir majmuaviy dars uchun ta’limning vazifalarini eng ratsional uyg‘unlashtirishni tanlashni, o‘quvchilar kontingentini eng asosiy, kuchli va kuchsiz tomonlarini ajratishni bilishi kerak. Majmuaviy yo‘nalganlik tamoyiliga qo‘yiladigan talablarini amalga oshirish qoidalari quyidagilardan iborat:

- Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv materialining nazariy mazmunini tanlash paytida o‘rganilayotgan tushunchalarni jismoniy tarbiyadagi ahamiyatli tushunchalar bilan aloqasini o‘rnatish zarur;

- chaqiriqqacha harbiy ta’limning asosiy materialini amaliy mashg‘ulotlar vaqtida o‘rganishni jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv dasturidagi konkret misollar va harakat amallari bilan birga olib borish zarur;

- CHaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va jismoniy tarbiya bo‘yicha materialini majmuaviy o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilayotgan bilimlarni shaxsiy va jamoaviy ahamiyatini ochib berish, harbiy va jismoniy ko‘nikmalarni takomillashtirish, dovyuraklik va qat’iylikni tarbiyalash dolzarbdir;

- o‘quvchi-yoshlarni jamoatchilik faoliyatiga va harbiy-jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga va sportning harbiy-sport turlari bo‘yicha shug‘ullanishga jalb qilish.

Harbiy-amaliy yo‘nalganlik tamoyili – o‘smirlar tomonidan CHaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va jismoniy tarbiya bo‘yicha armiya safida xizmatni o‘tashga muvaffaqiyatli adaptatsiya qilish imkonini beradigan harbiy-amaliy ko‘nikmalarni, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan usullar va harakat amallarini o‘zlashtirish zarurligini determinatsiya qiladi.

Mazkur tamoyilni amaga oshirish bo‘yicha asosiy harakat amallari quyidagilardan iborat:

- eng muhim harbiy-amaliy ko‘nikmalarni, va jismoniy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish va erishilgan darajada ushlab turish;

- chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlarning mazmuniga amaliy jismoniy tarbiya vositalarini integratsiya qilish va ushbu vositalarni armiya safida bo‘lajak xizmatni real shartlari darajasida qo‘llash bilan jismoniy va psixik yuklamalarni rejimini ishlab chiqish;

- jismoniy tayyorgarlikni tashkil qilish, boshqarish va o‘tkazishning barcha elementlarini chaqiriqqacha yoshdagi o‘smirlarni jismoniy tayyorgarlikni optimallashtirishga real qiziqishlari va ehtiyojlarini ta’minlashga yaqinlashtirish.

Ta’lim tizimida uzluksizlik tamoyili bilimlar va malakalarni mavzudan mavzuga, predmetdan predmetga izchil sekin-asta bosqichma-bosqich o‘tish bilan to‘plashga asoslangan bo‘lib, bilimlar yadrosini saqlashga, ularni boyitish va rivojlantirishga hamda fundamental tushunchalarni, g‘oyalarni o‘zlashtirishga, umumiy o‘quv malakalarini, ratsional tafakkur yuritish qobiliyatiga, o‘quv faoliyati usullariga va mazkur o‘quv jarayonida ma’lum bir bosqichlarni ajratishga asoslangan. Pedagogik tajriba davomida integratsion aloqalarni o‘tilgan materialga tayangan holda amalga oshirish hisoblanadi, unda, uzluksizlik aloqalarni o‘rnatish, amalga oshirishga, eski va innovatsion bilimlarni o‘zaro ta’siriga, har hil predmetlarning mazmunini va asosiy g‘oyalarini ochib berishga ko‘maklashadigan o‘smir o‘g‘il bolalarda mavjud bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalardan foydalanilgan. Mazkur tamoyilni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida jismoniy tarbiya va chaqiriqqacha harbiy ta’limning variativ usullari eslab qolish, tafakkur yuritish va

qiziqishlar tiplarini faol qo‘llashni ta’minlash uchun qo‘llanilgan. Faqatgina ularning birligi qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, o‘quv materialini mazmunini, integrativ ta’limning usullari va shakllarini tanlashni ta’minladi. Demak, yuqorida nomlari qayd qilingan tamoyillarni bir butun shaklda qo‘llashgina jismoniy tarbiya va chaqiriqqacha harbiy ta’limni integratsiyasi bo‘yicha vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Ubaydullayev Sh. va boshq. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik 10-sinf uchun darslik/
2. F.A. Abdullayev, E.X. Rasulev, A.R. Rahmonov. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi, «Adolat», 2001.
3. Ò. Hakimov. Xalqaro gumanitar huquq. O‘quv qo‘llanma, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.

ARISTOTELNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487227

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Yunoniston olimi, tarixiy shaxs va qadimgi dunyo tarixining yirik vakili hisoblangan Aristotel (Arastu) ning ilm-fanga qo‘shgan xissasi va faoliyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Aristotel, Yunoniston, tarix, falsafa, ilm-fan, madaniyat, mutafakkir, Qadimgi Sharq.

Kirish: Aristotel butunjahon ilm-fanining hozirgi yuksalishga erishishiga juda katta xissa qo‘shgan mutafakkir hisoblanadi. Chunki u ilk bora fanlarni alohida tizimlarga ajratgan, Yunon falsafasi rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazgan hisoblanadi. Uning faoliyati o‘zidan keyingi ko‘plab olimlarning ilmiy faoliyatiga turtki bergan hamda asos vazifasini bajargan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy ham juda ko‘p nazariyalarida Aristotel ta’limotlariga asoslangan. Mana shunday buyuk mutafakkirning ilmiy faoliyatidagi o‘ziga xosliklarni, ularning tarixiy ahamiyatini, ilmiy jihatdan qimmatlilik darajasini o‘rganish, nima sababdan Aristotel Arximed, Diogen, Geraklit, Demokrit kabi buyuk mutafakkirlar qatorida tilga olinadi, nega uning asarlari sharq mamlakatlarida ham keng tarqalgan?, degan savollarga javob topish ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy qism: Aristotel- miloddan avvalgi 384-yilda Frakiyaning Stagira shahrida tug‘ilgan. Qadimgi Yunoniston faylasufi, Aflotunning shogirdi va Makedoniyalik Aleksandrning ustozi bo‘lgan[1].

Arastuning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy kotibi bo‘lgan. Shu sababli Makedoniyaning bo‘lg‘usi hukmdori Filipp bilan yoshligidayoq tanishgan. Miloddan avvalgi 367-347-yillarda faylasuf Aflotunning akademiyasida tahsil olgan. Miloddan avvalgi 343-yildan boshlab Makedoniyalik Aleksandrga ustozlik qila boshladi. Makedonskiy taxtga o‘tirgach, Aristotelga bag‘ishlab haykal barpo ettiradi. Arastu peshonasiga sochini tushirib, kalta soqol qo‘yib yurgan. Miloddan avvalgi 336-yilda Arastu Afina shahrida o‘zining xususiy maktabini ochadi. Arastu o‘tkir zehn sohibi bo‘lgan. U 44270 satrdan iborat 28ta kitob yozgan.

Arastu asarlaridan mashhurlari- “Evdem”, “Sofist”, “Politik”, “Mneksen” (dialoglar), “G‘oyalar haqida”, “Farovonlik haqida”, “Birinchi analitika”, “Ikkinchi analitika”, “Kategoriyalar”, “Sofistlarga raddiya”, “Fizika”, Metafizika”, “Hayot tarixi”, “Jon haqida”, Nikomax axloqi”, “Evdem axloqi”, Axloqi kabir”, “Siyosat”, “Poetika”, “Ritorika” va boshqalar[2].

Arastuning shaxsiyati haqida ham ayrim ma’lumotlar mavjud. Uning eng katta orzusi tarki dunyo qilgan baxtiyor faylasuflarning afsonaviy orolidagi akademiya bog‘ining shiyponida nazariy fikrlar bilan band bo‘lib, osoyishta hayot kechirishdan iborat edi.

Arastuning shiori: “Faylasuf imkon qadar o‘tkinchi narsalardan uzoqroq turishi va o‘zining “vatani”- chin haqiqatlar saltanati tomon intilmog‘i lozim”-degan jumla bo‘lgan.

Aristotel miloddan avvalgi 322-yilda vafot etadi. Uning o‘limidan so‘ng ilmiy asarlari uyi yaqinidagi g‘orda saqlangan. Keyinchalik Iskandariyadagi muzeyga topshirilgan. Bu qo‘lyozmalar orasida asl nusxalar bo‘lmagan. Ularni milodiy 70-yilda rimlik sarkarda Sulla o‘lja sifatida olib ketadi va asarlardan nusxa ko‘chirtiradi.

Aristotel haqiqat haqida quyidagicha fikr yuritgan: “Haqiqatni izlash ham oson, ham mushkul. Chunki hech kim unga to‘liq erisholmaydi. Shuning barobarida, hech kim uni umuman payqamasligi ham mumkin emas. Ammo har bir odam tabiatni anglashimiz uchun ozgina bo‘lsa-da, o‘z xissasini qo‘shadi, ushbu xissalar yig‘indisi natijasida esa ulug‘vor manzara paydo bo‘ladi”.

Fransiya sobiq prezidenti Sharl de Goll Arastu haqida shunday fikr bildirgan: “Chuqur fikrlar, yengil tahlil va ishonchli mulohazalardan xoli bo‘lgan har qanday kasbga doir ilm behuda hiyla-nayrangga aylanadi. Oz bo‘lsa-da, ushbu sifatlarni o‘zida jo etgan, ammo ularni tarbiyalay olmagan, shuningdek, ulardan faqat harbiy sohada foydalanganlar yanglishadilar. Aql muayyan kasb mahoratidan topib bo‘lmaydigan xilma-xillikni talab etadi. Umumiy madaniyat haqiqiy boshqaruv maktabidir. Olamda bitta ham sarkarda yo‘qki, o‘z harbiy san’atini inson tafakkuri xazinasi evaziga yuksaltirmagan bo‘lsin. Biz buyuk sarkarda Makedoniyalik Aleksandrning g‘alabalari asosida, albatta, Aristotelni ko‘ramiz…”.

Aristotelning ustozi Platon doim o‘z shogirdi bilan faxrlanardi va uni boshqa, dangasaroq shogirdi Ksenokratga taqqoslab: “Bunisini qamchi bilan urib turish, unisining jilovidan tortib turish kerak”- der ekan.

Platon akademiyasida 20 yil ta’lim olgan Aristotel “g‘oyalar dunyosi to‘g‘risida”gi ustozining fikrini tanqid qildi. Aristotel fikricha, borliq jins va tur shaklida namyon bo‘ladi[3].

Aristotel o‘z asarlarida falsafiy g‘oyalardan tashqari 158 xil davlat tuzumiga ham ta’rif bergan. Uning o‘g‘li Nikomax otasining asarlarini asrab, nashr etish bilan shug‘ullangan.

Ustozi Platon vafot etganidan so‘ng Aristotel bilimlar to‘g‘risida haqiqatga yaqin bo‘lgan tasavvurni rivojlantira boshladi, shuning uchun u ma’rifatparvarlik kelguniga qadar tabiatshunoslikni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qildi[4].

Miloddan avvalgi IV asr oxirida Aristotel va uning shogirdlari tomonidan “Politiya” asari yozilgan. Asarda yunon polislari, O‘rtayer dengizi qirg‘oqlaridagi

yunon koloniyalari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Asar juda ko‘p bo‘limlardan iborat bo‘lsa-da, bizgacha uning faqat “Afina politsiyasi” qismi yetib kelgan.

U biologiyaga alohida qiziqish ko‘rsatgan va keyinchalik ba’zi bir nazariyalarni ishlab chiqqan, masalan, gektokotil orqali sakkizoyoqlarning ko‘payishi haqida fikr yuritgan.

Aristotel uzoq yillik kuzatishlari davomida ko‘plab hikmatli so‘zlarni keltirib o‘tgan bo‘lib, ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan:

“Biz bo‘sh vaqtni qo‘lga kiritish uchun bo‘sh vaqtdan mahrum bo‘lamiz, tinch yashash uchun esa urushamiz”, “Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas, ko‘proq orqaga ketadi”, “Umid orzuning uyg‘onishidir”[5].

Aristotel ilmiy jihatdan o‘z zamonasiga nisbatan shu qadar ilgarilab ketganki, uning ayrim nazariya va qarashlari yuzlab yillardan so‘ng olimlarda turli xil mulohazalarni keltirib chiqargan. Masalan, Galileo Galiley mexanikaga asos solishidan ikki ming yil muqaddam Aristotel o‘zining “Mexanika muammolari” risolasini yozgan edi. Mazkur risolada Aristotel o‘z zamonasi ilm-fani darajasi tufayli yecha olmagan 36ta dolzarb masalalarni sanab o‘tgan edi. Ular ichida quyidagi masala ham bor: nima sababdan daraxtga og‘ir yuk bilan qo‘shib bog‘langan bolta bilan zarb berilsa, daraxt nisbatan kam zararlanadi; lekin, agar boltani yuksiz ursak, u yiqiladi? Qaytanga bu holatda yiqilayotgan yuk, bosayotgandan ancha kichik[6].

Bu masala uzoq yillardan so‘ng Galileo Galileyda ham qiziqish uyg‘otadi va 1630-yilda buni hal qilishga urinib ko‘radi. Aristotel esa o‘z zamonasining tor tushunchalari sababli bu masalani yecholmagan. Qizig‘i shundaki, uni hozirgi zamon kishilarining aksariyati ham bilishi dargumon.

Sharqda Arastu deb atalgan Aristotel juda ko‘plab sharq va g‘arb mutafakkirlarining izllanishlariga turtki bo‘lgan ilmlar egasidir. Yurtimiz tarixida ham bunga misollarni ko‘rishimiz mumkin:

Forobiy ellin madaniyati donishmandligining hadsiz bilimdoni edi. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga oid taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidagi o‘zining qo‘shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel “birinchi muallim” unvoniga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, Forobiy ellin donishmandligini, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli sababli “ikkinchi muallim”, “Sharq Aristoteli” degan mo‘tabar unvon oldi[7].

Aristotelning fikrlari asl, teran, keng qamrovli va tizimli edi. Oxir-oqibat u sxolastikaning intellektual asosiga aylandi. XIII asrda avliyo Foma Akvinskiy Aristotel falsafasi va ilm-fanini nasroniy aqidasi bilan uyg‘unlashtirishni o‘z zimmasiga oldi va u orqali Rim-katolik cherkovining ilohiyotshunosligi va intellektual dunyoqarashi aristotelchilikka aylandi[8].

Yuqoridagi misollarning o‘zi ham Aristotel g‘oyalarining qimmati qay darajada ekanidan dalolat beradi.

Xulosa: Yuqorida buyuk Yunon mutafakkiri, sharq xalqlari Arastu deb atagan olim Aristotelning hayoti va ilmiy faoliyatiga imkoniyat darajasida to‘xtalib o‘tishga harakat qilindi. O‘rganilgan adabiyotlar natijasida shunday xulosaga keldimki, Aristotel shaxsiyati haqiqatdan ham juda katta ulug‘vorlikka ega. Bunday ulug‘vorlik uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho xissasi ortidan kelgan, albatta. Uning ilm-fanga qo‘shgan xissasi nafaqat o‘sha davr jamiyati, balki butun insoniyat uchun juda katta ahamiyatga molik hodisa bo‘ldi. Uning ilk bora fanlarni alohida tizimlarga ajratib chiqishidan turli xil fan sohalari bo‘yicha nodir asarlar yaratishigacha, o‘zining falsafiy-axloqiy fikrlaridan tortib aniq va tabiiy fanlarga oid dastlabki qarashlarni ilgari surishigacha hamma-hammasi insoniyat uchun qimmatli hisoblanadi. Chunki aynan Aristotelning dastlabki, nisbatan sodda nazariyalari, ilmiy yangiliklari bo‘lmaganda hozirgi kundagi ko‘plab mukammal kashfiyot va ixtirolar, yangi falsafiy qarashlar mavjud bo‘lmasligi mumkin edi. Sabab shundaki, Aristotelning ko‘plab ilmiy nazariyalari hamda falsafiy dunyoqarashi bugungi kunda ilm-fan sohasidagi ko‘pdan-ko‘p yangiliklar uchun ma’lum darajada asos bo‘lib xizmat qilmoqda va bu hodisa katta ehtimol bilan kelajakda ham xuddi shu yo‘sinda davom etadi.

Aristotel ilmiy merosining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, uning ilmiy-falsafiy qarashlari jahon ilm-fani uchun ko‘plab buyuk insonlarni yetishtirib berdi. Masalan, agar Aristotelning ilmiy qarashlari bo‘lmagada Abu Nasr Forobiy, Foma Akvinskiy kabi insonlar bu darajada buyuk bo‘lmasliklari mumkin edi. Chunki ular faoliyatida Aristotelning qarashlari juda katta salmoqqa ega hisoblanadi. Birgina Makedoniyalik Aleksandrga ustozlik qilgani ham Aristotelning aqliy jihatdan qanchalik yetuk ekanligidan dalolat beradi. Chunki dunyoni titratgan insonni o‘z fikrlariga ishontira olish hammaning ham qo‘lidan keladigan ish emas.

Shuning uchun ham biz Aristotelning ilmiy merosidan imkon qadar unumli foydalinishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Arastu.
2. Арасту. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. Т.: Янги аср авлоди, -2011. –Б. 5.
3. R. Rajabov. Jahon tarixi/ II qism/ Qadimgi Yunoniston, Rim. T.: Yangi asr avlodi, -2020. –B. 154.
4. https://uz.warbletoncouncil.org/aristoteles-13294.
5. https://hikmatlar.uz/author/90.
6. https://www.orbita.uz/idex.php?option=com_content&view=article&id=398:aristotel-masalasi&catid=67:maqolalar&ltemid=53.

7. R. Shamsutdinov/Sh. Karimov. Vatan tarixi/birinchi kitob. T.: Sharq, -2010. –B. 227.

8. https://www.britannica.com/biography/Aristotle.

BURG‘ULASH ISHLARIDA QO‘LLANILADIGAN DIZEL ELEKTR STANSIYASI ICHKI YONUV DVIGATELINING TUTUN GAZLARI EJEKSIYASI UNING SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH

Djurayev R.U
tfd.prof, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Navoiy shahri
Rayxonov Sh.Z
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, Olmaliq shahri
Ganiyev S.T
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, Olmaliq shahri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487325

Annotatsiya: Burg‘ilash uskunalarining ekspluatatsiyasi energiya samaradorligini oshirish, foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning muddatlarini kamaytirish hamda geologik qidiruv ishlarining yoqilg‘i energiya sarflarini kamaytirish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi**.**

Ushbu maqolada burg‘ilash ishlarida qo‘llaniladigan dizel elektr stansiyalarining ichki yonuv dvigateli tutun gazlari ejeksiyasi uning samaradorligiga ta’sirini tadqiq qilish keltirilgan.

Kalit so‘zlar: energiya samaradorlik, dizel elektr stansiyasi, issiqlik, utilizatsiya, ichki yonuv dvigateli, tutun gazlari, energiya yo‘qotilishlar, burg‘ilash, skvajina.

Mamlakatimizda yangi foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini jadallashtirish, burg‘ilash uskunalarini ishlatishda energiya tejovchi va iqtisodiy samarali usullarni tadqiq qilish, skvajinalarni burg‘ilash ishlarida resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash, burg‘ilash ishlari tannarxini kamaytirish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda.

Burg‘ilash texnikasi va texnologiyalarini takomillashtirish, burg‘ilash uskunalarining energiya samaradorligini oshirish va skvajinalarni burg‘ilash xarajatlarini kamaytirish foydali qazilma konlarini qidirish va qazib olishning dolzarb vazifasidir.


Skvajinalarni burg‘ilashning samaradorligini oshirish yangi innovatsion va yuqori samarali texnik echimlarni joriy etishni talab qiladi.

Burg‘ilashning energiya sarfi dizel elektr stansiyalari qurilmalaridan foydalanish tufayli ortadi, chunki uning yuritmasi ishlashi katta energiya yo‘qotishlariga asosiy sabab bo‘ladi. Yoqilg‘ining, taxminan, 30 % foydali quvvatga aylansa, uning 70 % issiqlik shaklida yo‘qoladi, shu sababli, yo‘qotishlarning aksariyati dizel elektr stansiyalarining ichki yonuv dvigatellariga to‘g‘ri keladi [1].

Dizel elektr stansiyalarining ishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, energiya yo‘qotishlarining katta qismi ichki yonuv dvigateliga tushadi, chunki yongan yoqilg‘ining hammasi ham foydali quvvatga aylantirilmaydi. Ichki yonuv dvigatelida yongan yoqilg‘idan ajralgan issiqlikning katta qismi dvigatelning sovutish tizimi va tutun gazlari bilan olib ketiladi [2].

Ichki yonuv dvigatelida yoqilg‘i yonganda issiqlikning faqat bir qismi foydali ishga aylanadi. Ushbu qism dvigatelning samarali foydali ish koeffitsienti bilan belgilanadi, uning qiymati bir qator omillarga bog‘liq va real sharoitda 30-35% dan oshmaydi. Boshqa barcha issiqlik atmosferaga tutun gazlari va dvigatelning sovutish tizimi orqali chiqarilib yuboriladi. Hozirgi vaqtda bu issiqlik foydali ishlatilmaydi va atrof-muhitni zararlagan holda yo‘qotiladi.

1-Rasmda Dizel elektr stansiyasi dvigatelidagi issiqlik yo‘qotishlari diagrammasi keltirilgan [2].



1-Rasm. Dizel elektr stansiyasi ichki yonuv dvigatelining issiqlik ko‘rinishidagi energiya yo‘qotilishlari.


Hozirgi kunda tutun gazlaridan foydalanilmaydigan dvigatelni kamdan-kam uchratish mumkin. Chunki bu iqtisodiy samarasiz mashina hisoblanadi, sababi u bir qator tizimlar yordamida to‘liq qayta ishlatilishi mumkin bo‘lgan energiyani katta miqdorda atmosferaga chiqarib yuboradi.

Dizel elektr stansiyasining ichki yonuv dvigatelidan ajraluvchi issiqlikni sanoat va maishiy ob’ektlarni isitishga, issiq suv bilan ta’minlashga, ishlab chiqarishning texnologik ehtiyojlariga foydali ishlatish mumkin.

Burg‘ilash ishlarini turg‘un bulmagan sharoitlarda olib borilganda, ya’ni ko‘chma burg‘ilash komplekslari qo‘llanilganda dizel elektr stansiyasidan ajralayotgan issiqlikni utilizatsiya qilish uchun qobiq-quvurli issiqlik almashgichlarni qo‘llash samarali hisoblanadi.

Ichki yonuv dvigatelining samaradorligiga tutun gazlari ejeksiyasining ta’sirini aniqlash maqsadida uyurmali quvurdan havo oqimi bilan tutun gazlari ejeksiyasida yoqilg‘i sarfi tajribada tadqiq qilindi.

Tajriba ishlarini bajarishda 2-rasmda sxematik ko‘rinishi keltirilgan moslamadan foydalanildi.



2 - rasm. Ichki yonuv dvigatelining tutun gazlari ejeksiyasi uning samaradorligiga ta’sirini tadqiq qilishni tajribaviy qurilmasining sxemasi.

1 – ichki yonuv dvigateli; 2 – tarozi; 3 – tutun gazlari quvuri; 4 – kompressor;

5 – uyurmali quvur; 6 – ejeksiyali soplo; 7 – issiqlik almashtirgich;

8 – lampalar bloki; 9 – ventilyator;

t_1 – issiqlik almashtirgichga kiruvchi tutun gazining harorati, (℃);

t_2 – issiqlik almashtirgichdan chiquvchi tutun gazining harorati, (℃);

t_{oxl1} – issiqlik almashtirgichga uzatilayotgan sovutuvchi havoning harorati, (℃); t_{oxl2} – issiqlik almashtirgichdan chiqayotgan havoning harorati, (℃);

V_{vx} – issiqlik almashtirgichga uzatilayotgan tutun gazi oqiminig tezligi, (m/s); V_{oxl} – issiqlik almashtirgichga uzatilayotgan sovutuvchi havo oqimining tezligi, (m/s); $t_{g.vx}$ – uyurmali quvurning issiq havosi harorati, (℃).


Dvigatel va issiqlik almashgich o‘rtasidagi tutun gazlari quvurida ejeksiyali soplodan foydalanish dvigatelning yoqilg‘i sarfini kamaytirish imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari generatorining quvvati 2 kVt bo‘lgan benzoagregatni qo‘llab o‘tkazildi. Generatorga yuklama sifatida cho‘g‘lanma lampalar qo‘llanildi. Yuklama 0 Vt dan 1800 Vt gacha, 300 Vt dan oshirib borildi. Uyurmali quvur issiqlik

almashtirgichdan oldinda benzoagregatning tutun gazlari quvurida joylashgan ejeksiyali soploda o‘rnatildi. Uyurmali quvurga siqilgan havo kompressor orqali berildi.

Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqich benzoagregatning tutun gazlari quvuriga issiqlik almashtirgichni ulab ejeksiyali soploni qo‘llamagan holda o‘tkazildi. Ikkinchi bosqichda benzoagregat va issiqlik almashtirgich orasidagi tutun gazlari quvurida ejeksiyali soploni qo‘llab o‘tkazildi.

3-rasmda ichki yonuv dvigateli yoqilg‘i sarfi qiymatining dvigatel yuklamasiga bog‘liqligi grafigi keltirilgan.



3 - Rasm. Ichki yonuv dvigateli yoqilg‘isi sarfining dvigatel yuklamasiga bog‘liqligi grafigi

Bajarilgan tadqiqot ishlari ichki yonuv dvigateli yoqilg‘i sarfi qiymatining dvigatel yuklamasiga bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.Tajriba-sinov jarayonida ejeksiyali soplodan foydalanish, ichki yonuv dvigatelining yoqilg‘i sarfini kamaytirishi kuzatildi. YOqilg‘ining tejalish qiymati dvigatelga yuklama ortishi bilan ortib boradi.

Utkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

–Dizel elektr stansiyalari va kompressor uskunalarining yuritmasining ichki yonuv dvigatellaridagi issiqlik kurinishidagi energiya yo‘qotilishlar miqdori 50-55 % gacha etadi;

–Burg‘ilash ishlarida qo‘llaniladigan dizel elektr stansiyalari va kompressor uskunalari yuritmasining ichki yonuv dvigatelini issiqligini utilizatsiya qilish qurilmasi qo‘llanilishi, tutun gazlarining issiqligidan unumli foydalanish imkonini beradi, hamda issiqlik ta’minoti uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirib uskunaning foydali ish koeffitsientini 30-40% gacha oshiriradi;

–Tajriba-sinov tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, ejeksiyali soplodan foydalanish ichki yonuv dvigatelining yoqilg‘i sarfini o‘rtacha 10% ga kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев Р.У., Меркулов М.В. О возможности применения вихревых труб при бурении геологоразведочных скважин // Известия Вузов. Геология и разведка. Москва. 2013. №3. С.76-78.

2. Джураев Р.У., Меркулов М.В. Нормализация температурного режима скважин при бурении с продувкой воздухом // Навоий, «А. Навоий», 2016.

3. Головин С.В. Повышение эффективности разведочного бурения путем оптимизации теплоутилизационных систем автономных энергетических комплексов // Дисс. …канд. техн. наук. – Москва, 2016. – 174 с.

4. Джураев Р.У., Меркулов М.В.Утилизация теплоты ДВС привода компрессора и избытков воздуха при бурении геологоразведочных скважин с продувкой воздухом. // Горный информационно-аналитический бюллетень - ГИАБ, №7. Москва. 2016 г. С 186-192.

5. Джураев Р.У., Меркулов М. В., Косьянов В. А., Лимитовский А. М. Повышение эффективности породоразрушающего инструмента при бурении скважин с продувкой воздухом на основе использования вихревой трубы. // Горный журнал. – Изд. «Руда и металлы». – Москва, 2020. – №12. С. 71-73. DOI: 10.17580/gzh.2020.12.16

6. Merkulov M.V., Djuraev R.U., Leontyeva O.B., Makarova G.Y., Tarasova Y.B. Simulition of thermal power on bottomhole on the bases of experimental studies of drilling tool operation // International Journal of Emerging Trends in Engineering Research. Volume 8, No.8, 2020. – pp. 4383-4389.

7. Меркулов М.В. Косьянов В.А. Теплотехника и теплоснабжение геологоразведочных работ: Учебное пособие. – Волгоград, Ин-фолио, 2009. – 272 с.

FEATURES OF AUDIT PLANNING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Kilicheva Farida
Supervisor Candidate of Economics
Associate Professor of the Department
"Accounting" of the Tashkent Financial Institute
Islomova Shakhrizoda
a student of the BNG-30 group
the department "Budget Control and Treasury"
of the Tashkent Financial Institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487329

Abstract: The article analyzes the following main stages: study and analysis of the practice that has developed in the company of business processes and workflow, compliance with performance standards, development of a concept for building an internal control and audit system in accordance with the requirements and expectations of the company's owners and management; development of internal company regulations and document management system and assistance in the formation of plans and methods for conducting internal audit.

Keywords: audit organization, economic entity, audit activity, auditing, auditor, internal control, audit planning, preliminary planning.

The question of the need for an audit in Uzbekistan has arisen since the development of foreign trade relations in the beginning of market transformations. The attraction of foreign capital required guarantees of return, and, consequently, an independent assessment of the activities of entrepreneurial structures. The usual way to obtain reliable information is through an independent audit. Thus, the need for audit has become an objective reality and without it the government can not control targeted use of budgetary funds. Audit activity in Uzbekistan began in 1992, when the Law “On Audit Activity” was adopted. National Auditing Standards (NAS) were developed, which were based on International Auditing Standards (ISA). Considering that changes are made to the ISA from time to time, the NAS contain outdated provisions compared to the ISA. NAS are one of the elements of regulation of audit activity and are the basis for the development of internal standards of audit organizations and methodology for conducting audits. In Uzbekistan, a phased reform of auditing activities is underway. The main reformer of audit activity is the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan together with the Chamber of Auditors of Uzbekistan and the National Association of Accountants and Auditors. On 10 November 2020, a plenary session was held at the Legislative Chamber of the Oliy

Majlis of the Republic of Uzbekistan to discuss the second reading of the bill of the Republic of Uzbekistan "On Auditing Activities". It is known that this draft law was developed in order to ensure the implementation of the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan PP- 3946 of 19 September 2018 on the approval of the "Action Plan for the further development of audit activities in the Republic of Uzbekistan." The discussion was attended by deputies of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis, initiators of the draft law, heads and employees of public audit associations, a group of experts and audit organizations operating in the country. The draft law was developed in order to unify and systematize the documents governing auditing into a single normative legal document that provides for the introduction of a number of norms aimed at ensuring freedom of auditing. In particular, it provides for the implementation of audit activities only on the basis of international auditing standards, simplification of the procedure, giving the right to conduct an audit. In addition, it is planned to create an effective system for improving the qualifications of auditors. Most importantly, in order to ensure freedom of audit activity, it is planned to establish a procedure for applying a simplified register of auditors and audit organizations, with the abolition of the procedure for issuing licenses for auditing. The abolition of the requirement for the minimum amount of the authorized capital of an audit organization, as well as the conduct of audits in the same economic entity for a period of no more than seven consecutive years will serve to further develop this type of activity. On the other hand, in order to ensure and improve the quality of audit services, a specially authorized state body, together with republican public associations of auditors, exercises external control over the quality of their work without interfering in the financial and economic activities of audit organizations. It also envisages the implementation of audit activities only on the basis of international audit standards, an increase in the minimum number of auditors in an audit organization from the current two to at least four, which will also improve the quality of audit.

The principle of comprehensiveness of audit planning involves ensuring the interconnectedness and consistency of all stages of planning - from preliminary planning to drawing up a general plan and audit program. The principle of continuity of audit planning provides for the establishment of associated tasks for a group of auditors and the linkage of planning stages in terms of timing and related economic entities (structural divisions allocated to a separate balance sheet, branches, representative offices, subsidiaries). When planning an audit for a long period (in the case of audit support for an economic entity during the year), the audit organization should timely adjust the plans and programs for the audit, taking into account changes and results of interim audits. The principle of audit planning optimality implies the provision of planning variability in the audit firm's planning process so

that the optimal variant of the overall plan and audit program can be selected based on criteria determined by the audit firm itself. For effective audit planning, before writing a letter of commitment and before concluding an audit agreement, the audit organization must agree with the management of the economic entity on the main organizational issues related to the audit. At the preliminary planning stage, the auditor should become familiar with the financial and economic activities of the economic entity and have the following information:

- on external factors affecting the economic activity of the economic entity, reflecting the economic situation in the country (region) as a whole and its industry specifics;

- on internal factors affecting the economic activity of an economic entity related to its individual characteristics.

In addition, the auditor should be familiar with:

- organizational and managerial structure of the economic entity;
- types of production activities and the range of products;
- capital structure and share price (if the shares of an economic entity are subject to quotation);
- technological features of production;
- level of profitability;
- main buyers and suppliers of an economic entity;
- the order of distribution of profit remaining at the disposal of the organization;
- existence of subsidiaries and affiliates;
- an internal control system organized by an economic entity;
- principles of personnel remuneration formation.

At the stage of preliminary planning, the audit organization evaluates the possibility of conducting an audit. If the audit organization considers it possible to conduct an audit, it proceeds to the formation of staff for the audit and concludes an agreement with an economic entity. When planning the composition of the audit team, the audit firm should take into account the working time budget for each stage of the audit (preparatory, main and final); expected time frame for the group; the quantitative composition of the group; position level of group members; succession of group personnel; qualification level of group members. In the process of preliminary acquaintance with the client, the auditor needs to assess the financial stability of the client, the position of the client in the economic environment, relationship with the previous audit firm, if any. It is advisable for the new auditor to contact his predecessor, from whom he can obtain information about the intentions of management, disputes regarding the application of accounting principles, audit procedures or payment. But first, the auditor must agree on the possibility of such contact with the client. In the event that there were litigation or disputes between the

former auditor or the client, the new auditor should be advised that any information may not be provided to him. The auditor needs to carefully evaluate the situation if the client did not give permission to receive information from the previous auditor or the previous auditor refused to give information. In addition, the auditor can use the information provided by lawyers, other audit firms, entrepreneurs. The assessment of the possible continuation of cooperation is also carried out by firms that have been cooperating with the client for more than a year. Controversial issues may lead to the termination of cooperation. When evaluating the reasons for inviting the auditor, the latter should determine the most likely users of the financial statements. If the reporting is used intensively enough or the enterprise will be sold (reorganized) in the near future, the auditor should collect a larger amount of material with confirmation of the reliability of the reporting.

General information about the enterprise is necessary in order to further make a reasonable conclusion about the reliability of the reporting. In particular, it is necessary to find out the specifics of the activity and industry characteristics of the enterprise, understand its organizational structure, determine production, financial and other ties, get acquainted with legal obligations, and obtain information from various sources. Discussions with management staff, meetings with senior management and executive staff, conversations with managers and non-accounting personnel contribute to obtaining first-hand information. Visiting and inspecting the main sites, production units, warehouses allow you to see for yourself the availability and safety of assets, to form an idea of the production conditions. It is important to use external and internal reports and publications. External reports are business press and newspapers, industry analyst reports, comparisons with key competitors and industry averages, government and tax laws and regulations, official statements; internal reports are financial reports, monthly financial information, minutes of meetings of the board of directors, management board, management, shareholders, reports of managers, including budgets, forecasts, projects, internal reports of auditors, consultants, instructions on procedures, policies within the company. You should get acquainted with the history of the enterprise development, types of activities and accounting policies that existed in previous years, study special literature, meet with the client's auditors. It is very important to obtain information about the company's policy in various areas; degree of responsibility and rights of managers of different levels; circle of persons who have the right to change the policy of the enterprise. One of the most important questions to be clarified at this stage of the work is the definition of parties related and associated with the enterprise (related parties are subsidiaries and any other parties that can influence the management and operational policies of each other). Information about them should be disclosed if it is material: the nature and extent of transactions between the parties should be

described (sales and purchases between a subsidiary and a parent company, equipment exchanges between subsidiaries and affiliates, loans and financial assistance, transactions with key customers and suppliers, etc.), as well as mutual debt between them.

We believe that each audit company is unique and do not offer standard solutions. The internal control system should be appropriate to the nature and scale of the operations carried out. In addition, we should remember that the State without control is not the State, because the purpose of the auditing is to control execution of the laws of the State and it is a key to development of the country.

References:

1. Planning an audit of financial statements in accordance with international auditing standards. Planning an audit of financial statements in accordance with International Standards on Auditing Standards Planning ISA 300 330 (tandem-agro.ru)

2. Audit of credits and loans of the enterprise. Revision of settlements with banks on loans (com-roseltorg.ru)

3. On Audit Activity - "Adilet" LIS (zan.kz)

4. The new edition of the Law of Uzbekistan "On audit activity" was approved by the deputies (uzdaily.uz)

5. Law of the Republic of Uzbekistan "On Auditing". May 26, 2000.

6. Karimov I. A. Global financial and economic crisis, ways and measures to overcome it in the conditions of Uzbekistan. –T.: Uzbekistan, 2009. 56 p.

7. Audit / Ed. M. M. Tulakhodzhaeva, T. I. Dzhuraeva, F. G. Gulyamova. - Tashkent: TSEU, 2013.

8. Sanaev N., Narziev R. Audit. -T.: Shark, 2001

9. Stages of implementation and problems of implementation of international auditing standards in uzbekistan (cyberleninka.ru)

BOSHLANG‘ICH SINFO‘QUVCHILARI BILAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Abdullayeva Gulnora Mengaliyevna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
81-maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487333

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar va ularning ayrim turlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari ishlar, to‘garaklar, sayohat, devoriy gazeta, muzey, viktorina.

Umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ahamiyatli sanaladi. O‘quvchilar maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan vaqtlaridan to ushbu dargohni bitirgunga qadar turli fanlar bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarda qatnashadilar. Snfdan tashqari ishlari deb - maktabning o`quvchilar bilan olib boradigan o`quv mashg`ulotlaridan tashqari xilma-xil ta’lim-tarbiya ishlariga nisbatan aytiladi. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini yo`lga qo`yish shakllaridan biri sanaladi.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkl etish va unda o‘quvchilarning faol ishtirokini taminlash uchun bir qancha mashg‘ulotlar mavjud. Eng avvalo o‘qituvchi tashkil etishi kutilayotgan sinfdan tashqari mashg‘ulotning maqad vazifalarini to‘g‘ri anglay olishi va undan kutiladigan natijalarni ko‘ra bilishi zarur. Boshlang‘ich sinflarda deyarli barcha fanlar doirasida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etsa bo‘ladi. Quyida anahunday mashg‘ulotlarning ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

To‘garaklar - sinfdan tashqari ishlarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri. To‘garaklarning asosiy vazifasi – ta’lim olayotgan fanlariga alohida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar, shuningdek fanlarni yaxshi o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ishlarni tashkil etishdir. Fan to‘garaklariga o'quvchilarni tanlashda ularning fanga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. To‘garaklarda o‘quvchilar o‘zlarini darsga qaraganda erkinroq his etadilar.

Tanlovlar – fan o‘qituvchilari tomonidan turli-xil shartlardan iborat bir nechta bosqichli tanlovlarni tashkil etish mumkin. Bunda o‘quvchilarga tanlovning o‘tish tartibi, unda qatnashish shartlari va albatta rag‘bat haqida yaxshilab tushuncha berish

zarur. Masalan: o‘qish darslarida sinfdan tashqari “Ifodali o‘qish”, “She’r aytish” kabi mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin.

Fan olimpiadalari - Olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng ko'lamda o'tkaziladigan va fanlarni o'rganishda o'quvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan ishdir. Olimpiada qatnashchilarining tarkibiga bog'liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda o'tkazish mumkin. Olimpiadani 4- sinfdan boshlab o'tkazib, g'oliblar maktabning devoriy gazetalarida va o'quvchilar yig'ilishlarida rag'batlantiriladi.

Gazeta va viktorinalar (matematika fani misolida) Matematik gazeta va viktorinalar Gazeta, viktorinada har xildagi matematik mazmunni o'z ichiga olgan topi'shmoq, misol va topshiriqlar rasmlarda berilib, qiziqtirish xarakterida bo'ladi. Viktorinada esa o'quvchilarga yechish tavsiya qilinadigan topshiriq beriladi. Javoblar belgilangan vaqtda o'quvchilarga yetkaziladi. Matematik viktorinalar - gazetalardan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun berilgan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchi tomonidan g'olib o'quvchi aniqlanib, e'lon qilib boriladi. Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo'yiladi, bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi sonli

Ekskursiya – maktabdan tashqari ishlardan eng muhimlaridan sanaladi. Ekskursiya o'tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo'lishi nihoyatda muhimdir, shunday bo'lganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar. Maktabning joylashgan o'rniga qarab bolalar bilan har xil ustaxonalarga, fabrikalarga, kombinatlarga, fermalarga, shirkat xo'jaligi va fermer xo'jaligi hamda boshqa joylarga ekskursiyalar o'tkaziladi. Qurilish materialidan, mashinalardan, ishchi kuchlaridan va boshqa narsalardan foydalanish haqida masalalar tuzish va yechish mumkin. Ayniqsa muzeylarga uyushtiriladigan sayohatlar o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Teatr – o‘quvchilar orasida iqtidorlilarni kashf etishda maktabda sahnalashtiriladigan tomoshalar muhim salanadi. Biror asarni, ertak yoki hikoyani sahnalashtirishda o‘qituvchi albatta o‘quvchilarni qobiliyatini to‘g‘ri baholay bilshi zarur.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga, ularda ta’limiy va tarbiyaviy bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://cyberleninka.ru/article/n/sinfdan-tashqari-tarbiyaviy-ishlarni-tashkil-qilishning-ilmiy-va-nazariy-asoslari/viewer

2.http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/majmua/fileviewer/?param=65abd2e1f7ed68bc57d39713f68f6c9c

IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDA MUHIM AHAMIYATI

G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li
O‘zMU JF o‘qituvchi
Xonkelov Yassim Komiljon o‘g‘li
O‘zMU JF talaba
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487335

Annotatsiya: Milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarida modellashtirish va prognozlashning mohiyati, iqtisodiy zaruriyati, nazariy va uslubiy asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, ularning iqtisodiy mazmuni, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida echilishi, olingan natijalarni iqtisodiy talqin qilish kabilar bayon etilgan. Shu bilan birga, qo‘llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirish - o‘tmish va hozirgi zamonning iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari, tendentsiyalariga asoslangan holda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlash.

Kalit so‘zlar: Modellashtirish, modellashtirishni o‘rgatish, iqtisodiy modellar, kognitiv, evristik, prognostik, moddiy-texnik resurslar, grafiklar, sxemalar.

Abstract: The nature, economic necessity, theoretical and methodological foundations of modeling and forecasting in the national economy and its sectors, modeling of socio-economic processes, their economic content, solution by means of modern information technologies, economic interpretation of the obtained results are described. At the same time, in the manual, socio-economic forecasting in the conditions of the market economy is scientific knowledge of the future based on the laws and trends of the economic development of the past and present, and the determination of the goals and tasks of future development.

Key words: Modeling, teaching modeling, economic models, cognitive, heuristic, prognostic, material and technical resources, graphs, schemes

Аннотация: Рассмотрены сущность, экономическая необходимость, теоретико-методологические основы моделирования и прогнозирования в народном хозяйстве и его отраслях, моделирование социально-экономических процессов, их экономическое содержание, решение средствами современных информационных технологий, экономическая интерпретация полученных результатов. описано. В то же время в учебном пособии социально-экономическое прогнозирование в условиях рыночной экономики представляет собой научное знание будущего, основанное на закономерностях и тенденциях экономического развития прошлого и настоящего, и определение целей и задач. будущего развития.

Ключевые слова: Моделирование, обучение моделированию, экономические модели, когнитивные, эвристические, прогностические, материально-технические ресурсы, графики, схемы.

Model so‘zi lotincha modulus so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, me’yor degan ma’noni anglatadi.

Iqtisodiy model - iqtisodiy obyektlarning soddalashtirilgan nusxasidir. Modelning hayotiyligi, modellashtiriladigan obyektga aynan mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. Modelda o‘rganilayotgan obyektning hamma tomonini aks ettirish mumkin emas, unda jarayonning eng xarakterli va eng muhim belgilari aks ettiriladi. Shuni unutmaslik kerakki, juda soddalashtirilgan model qo‘yilgan talablarga to‘la javob bermaydiva aksincha, murakkab model esa uni yechish jarayoniga qiyinchiliklar tug‘diradi. Modelning haqiqiyligi to‘plangan ma’lumotlar hajmiga, aniqlik darajasiga, tadqiqotchining malakasiga va modellashtirish jarayoniga, aniqlanadigan masalaning xarakteriga bog‘liq. Modellashtirish jarayonining oddiy sxemasi quyidagicha:

-ob’yekt;

-kuzatuvchi;

-maqsad;

-model;

Hozirgi davrda iqtisodiy ta’lim sohasida IIJMPning roli tobora ortib bormoqda. Buning sababi ikki tomonlamadir: bir tomondan, tajribaga asoslangan tadqiqotlar usulini chuqur tushuna olishi iqtisodchilarning ta’lim sohasiga qo‘yilayotgan talablardan asosiysi bo‘lib qolmoqda, ikkinchi tomondan esa matematika va statistikaning iqtisodiy ta’limdagi roli yanada ortib bormoqda. . IIJMP fanining yuzaga kelishi iqtisodiyotni o‘rganishda bir nechta fanlarni birlashtirgan yondashuv natijasi bilan bog‘liq. Bu fan iqisodiyot nazariyasi, statistika va matematik usullarni birlashtirish va o‘zaro to‘ldirish natijasida yuzaga kelgan.

Biroq endi faqat matematik statistikaga asoslangan tadqiqot usullari yetarli emasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmokda. Yetuk iqtisodchilar matematik statistika va ehtimollar nazariyasi usullaridan, optimallashtirish va dinamik dasturlash va matematikaning boshqa usullaridan unumli foydalanganliklari sababli ularning ilmiy salohiyatlari dunyoda tan olingan. Aytib o‘tish joizki, Alfred Nobel vasiyat qilgan dastlabki beshta yo‘nalish orasida iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘lmagan. Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotining rasmiy nomi “Alfred Bernxard Nobel xotirasiga iqtisodiyot sohasidagi mukofot” deb ataladi va u Nobel tug‘ilganining 100 yilligi munosabati bilan Shvetsiya Milliy banki tomonidan 1968 yili ta’sis etilgan. Birinchi laureatlar norvegiyalik olim Ragnar Frish va gollandiyalik Yan Tinbergen iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga matematik usullarni qo‘llaganlari uchun bu mukofotni

olishga muvaffaq bo‘lganlar. Shu paytgacha Nobel mukofoti laureatlari bo‘lgan iqtisodchilarning deyarli hammasi ekonometrik tahlil uslublarini iqtisodiy muammoni hal etishda keng qo‘llay olganlar. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini boshidan kechirmokda. Dunyo hamjamiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bunga ta’sir etmay qolaolmaydi. Ma’lumki, iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy richagidir. Buning uchun kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga katta e’tibor berish lozimligi juda ko‘p ta’kidlanmokda. Ana shu sohalarni rivojlantirishda esa iktisodchi, menedjer va marketologlarning roli juda katta. Shuning uchun ular o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyotini tez tahlil qilib, to‘g‘ri qarorlar qabul qilib, kelajakni prognoz qila bilgan holda yangi yo‘nalishlarga tez moslashib ish ko‘rishlari kerak bo‘ladi. Mamlakatimizning rivojlanayotgan iqtisodiyoti uchun nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila oladigan, balki zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellar asosida kompyuter texnologiyalarini qo‘llab, ushbu jarayonlarni ko‘p variantli yechimlarini oladigan iqtisodiy-matematik modellashtirish sohasidagi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Bu esa iqtisodiyotda vujudga kelgan tendensiyalarni, o‘rganilayotgan ob’ektlar holatini tadqiq qilishga, ularning rivojlanishini prognozlashga va shu asosda milliy iqtisodiyotdagi chegaralangan resurslardan samarali foydalanish maqsadida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Bozor iqtisodiyoti murakkab, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi jarayonlardan iborat bo‘lib, unga noaniqlik va tavakkalchilik elementlari xosdir. Bunday sharoitda iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda iqtisodiy-matematik usullar va modellardan foydalanish kutilishi mumkin bo‘lgan salbiy hodisalarning oldini olish imkonini beradi. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar ilmiy asoslangan qonuniyatlar asosida u yoki bu iqtisodiy jarayonlarning hozirgi holati (statikada), uning istiqboldagi (dinamikada) o‘zgarishlarini oldindan ko‘rsatib berishga imkoniyat yaratadi. Chunki, bozor kon’yunkturasini oldindan prognozlamasdan turib, korxonalar mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish strategiyasini belgilay olmaydilar. Bozordagi raqobat kurashi korxonalarga kelajakda o‘z mahsulotlarini raqobatbardosh, sifatli va arzon narxlarda ishlab chiqarishni taqozo etadi. IIJMP fani orkali milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarni modellashtirishning nazariy va uslubiy asoslari, aniq iqtisodiy ob’ektlar misolida modellarni yaratilishi, ularning iqtisodiy mazmuni, qo‘yilgan masalalarni kompyuter dasturlarida yechish va olingan natijalarni iqtisodiy talqin qilish kabi bosqichlari bilan tanishtiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki modellashtirish va prognozlash (ekonometriya) fanini chuqur o‘rganmay turib, uni o‘z tadqiqotlarida qo‘llay olmay turib, zamonaviy yetuk iqtisodchi bo‘lish qiyin. Buning uchun ekonometrik tahlil o‘tkazilganidan so‘ng olingan natijalarning to‘g‘ri iqtisodiy talqinini bera olish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uchkun S., Dilshod N. Process Of Identifying The Significant Accounts In The Revenue Cycle //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.
2. Dilshod N. Xalqaro standartlar asosida korxonalarda tushumlar auditini tashkil qilish bosqichlari va dastaklarini takomillashtirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.
3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. The effect of the secret economy in a daily life of the society //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.
4. O‘g‘li n. D. R., Qizi t. D. Z. Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va unga oid yangi yondashuvlar //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.
5. Akramovich N. A. The Priority Of Using Innovative Technologies In The Agricultural Education System //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
6. G‘Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘zbekistonda iste’mol savatchasi hozirgi holatini va uni shakillantirish yo ‘nalishlari //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.
7. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
8. Nizametdinov A. A. Oliy ta’lim tizimining agrar sohasida innovatsion texnologiyalar qo‘llash ustuvorligi. International conferences, 1 (6), 58–60. – 2022.
9. Nizametdinov A. A. Oliy ta’lim tizimida agrar sohaning ustuvorligi unda innovatsiyalarning qullanishi. International conferences, 1 (6), 96–98. – 2022.
10. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.
11. Muxtarov B., Murotjonova M. O‘zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub ‘ektlarining rivojlanishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 581-584.
12. Ogli R. A. R. The difference between the concepts of database and database management system //Archive of Conferences. – 2022. – C. 33-34.
13. Nodira T., Maxfirat T. Formation and development of pronunciation in foreign language teaching in school students //international conferences on learning and teaching. – 2022. – т. 1. – №. 1.

14. Nodira T., Maxfirat T. Modern methods of teaching foreign language pronunciation to primary school pupils is based on the japanese experience //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 205-208.

15. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 116-126.

16. Sarvar O'ktam o'g G. et al. Systematic-situation approach in management //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 999-1008.

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA TA’LIM – TARBIYA BERISH

Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus
pedagogika – logopediya yo‘nalishi 1 kurs talabasi
Baratboyeva Muxlisa Tursunali qizi
Qurbonova Nazokatxon Iqboljon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487339

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq o‘stirishdagi ayrim muammo va eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalardagi kamchiliklar chiroyli qilib yoritilgan. Oilada ota – onaning farzand tarbiyasi bilan birga bola bilan qanday gaplashish, unga ertaklar aytib berishi hamda tarbiyachilarni mohirona faoliyatiga oydinlik kiritib berilgan. Oilada va bog‘chada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarga tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Suyrdopedagogika, jarayon, fan, nutq, oila, nuqson, talaffuz, ong, aql, ta’lim – tarbiya**.**

Maxsus pedagogika tarmog‘i – surdopedagogika (lot. «surdus»-karlik), eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, ularga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan (maxsus pedagogika tarmog‘i). Eshitishda nuqsoni bo‘lgan ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta’lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari – maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi. Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksionpedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi bola o‘sishidagi kamchiliklarining oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha surdopedagogikaning alohida fan sifatida o‘rganilishi, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning yosh davrlariga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarning mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta’lim-tarbiya shart-sharoitlarini yaratishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Eshtishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga

salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o‘rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o‘zlashtiradilar va ulardan to‘g‘ri foydalanadilar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta’lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o‘zgalar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so‘zlashuv nutqning ta’sirisiz kechadi. Shunday qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to‘xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi.

Demak, bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me’yorda eshitadigan bolalardan-da ko‘proq maxsus ta’lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta’lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta’lim-tarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Maktabgacha surdopedagogika fani pedagogika fanining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda rivojlanadi.

Maktabga surdopedagogikaning ilmiy-metodologik negizini falsafa tashkil etadi, zero, falsafa tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘rganish metodologiyasini belgilaydi, tarbiya masalasiga ilmiy asoslangan holda yondashish imkoniyatini beradi. Ma’lumot va ta’lim nazariyasi bo‘lgan didaktika surdopedagogika fanlari tizimiga kiradi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari va istiqbollarini o‘rganish didaktikaning vazifasiga kiradi. Shu asosda ta’limning maqsadi, mazmuni, prinsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalari ishlab chiqiladi.

Surdopedagogika fani didaktik masalalarni ishlab chiqishda, masalan, axloqiy tarbiya masalalarini o‘rganishda, estetik tarbiyaning maqsadi, yo‘llari va usullarini belgilashda etika faniga asoslanadi. Maktabgacha surdopedagogika fani umumiy, maktabgacha va maxsus psixologiya fanlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Psixologiya, insonning psixik rivojlanish qonuniyatlarini filogenez va ontogenezda o‘rganuvchi fan sifatida, insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari chog‘ida shakllanadigan psixik jarayonlar (idrok, sezgi, tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuyg‘u, iroda va hokazo)ni o‘rganadi. Surdopedagogika ulardan foydalanib, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limining mazmuni va metodlarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha surdopedagogika fanida psixologlar L.S.Vigotskiy, I.M.Solovev, T.V.Rozanovalarning, ilmiy nazariyalariga ko‘ra psixik va jismoniy rivojlanishidagi

kamchilik bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining buzilishiga olib kelsa, bunday bola anomal deb hisoblanadi. Eshitishning pasayishi bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi: nutqning muloqot qilish, idrok etish, fikrlash, bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ta’lim muassasasida pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkillashtirish, eshitishning pasayishi bilan bog‘liq umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmoq zarur.

Zaif eshituvchini tekshirish jarayonida eshituvchidan foydalangan holda nutqni idrok etish imkoniyatlari aniqlanadi. Zaif eshituvchining birinchi darajasida, eshituvning pasayishi 50 db dan oshmaganda, bola 1-2 metrdan uzoq masofada gaplashish balandligidagi nutqni aniq qabul qila olgani sababli , nutqiy muomalaga kirisha oladi. Zaif eshituvchining ikkinchi darajasida, ya’ni eshituv 50– 70 dbgacha pasayganda, so‘zlashuv, nutq 1 metrdan uzoq bo‘lmagan masofadan qabul qilinganligi sababli, nutqiy muomala qiyinlashadi.

Zaif eshituvchining 3-darajasida, ya’ni eshituvning pasayishi 70 db dan ortganda, nutqiy muloqot buziladi, sababi, gaplashish balanligidagi so‘zlashuv nutq quloq yonida ham noaniq idrok etiladi. Ma’lumki, eshituv holati 15-20 db ga pasayishi bilan, nutqni egallashda qiyinchiliklar vujudga keladi. L.V.Neyman ushbu holatni «normal eshituvchi va zaif eshituvchining chegara holati» deb hisoblaydi. L.V.Neyman tasnifiga ko‘ra zaif eshituvchi va karlik o‘rtasidagi shartli chegara 85 db doirasida bo‘ladi. Eshituv holatining pasayishi karlik darajasida bo‘lgan holda, nutqni mustaqil ravishda (tabiiy) o‘rganish imkoniyati bo‘lmaydi.

Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi:

1-guruh – eng past chastotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh – 500 Gs gacha bo‘lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

3-guruh – 1000 Gs gacha bo‘lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

4-guruh – keng diapazondagi chastotalarni, ya’ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo‘lgan (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlarni (baqiriq, parovoz qichqirig‘i, nog‘ora ovozi) idrok etishga qodir bo‘ladilar. 3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarliroq bo‘ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chastotalar ovozlar (turli musiqa asboblar va o‘yinchoqlar, hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar: qo‘ng‘iroq, telefonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4 - guruh kar bolalar tanish bo‘lgan bir nechta so‘z yoki bo‘g‘inlarni farqlay oladilar.

Shunday qilib, barcha kar bolalar turli miqdordagi eshitish qoldiqlariga ega bo‘ladilar. Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga xizmat qiladi hamda og‘zaki nutqni rivojlantirishga

yordam beradi. Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida eshituv holatini baholashda Xalqaro tasnif ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu tasnifga ko‘ra eshituvning o‘rtacha pasayishi 500, 1000, 2000 Gs chastotalarda aniqlanadi.

Zaif eshituvning 1-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi. Zaif eshituvning 2-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo‘ladi. Zaif eshituvning 3-darajasi – eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo‘ladi. Zaif eshituvchilikning 4-darajasi – eshituvning pasayishi70 db dan 90 dbgacha bo‘lishi bilan ifodalanadi. Eshituvning pasayishi 90 dbdan o‘tib ketsa, bunday holat «karlik» deb tafsiflanadi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi tizimini yaratishda, bolalarni saralash mezonlarini belgilashda, differensial ta’limni yaratishda, samarali ta’lim-tarbiya usullarini tanlashda R.M.Boskis (1963y) klassifikasiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiyning bola psixikasining rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi defektlar to‘g‘risidagi nazariyasiga asoslanib, R.M.Boskis, eshitishdagi nuqsonlarni farqlash bo‘yicha pedagogik tasniflash mezonlarini ishlab shiqdi.

1. Bola eshituv analizatorining buzilishi, kattalarning xuddi shunday buzilishidan keskin farq qiladi. Katta kishilarning eshitishi pasaygan holda eshituv yordamidagi nutqiy muloqot buziladi. Ilk davrda eshituvning pasayishi, bolalarning psixik rivojlanishiga ta’sir etadi, rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarini keltirib chiqaradi.

2. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning rivojlanishini to‘g‘ri tushunish uchun, ular tomonidan mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir.Eshituv qobiliyatining cheklanishi nutqning egallanishiga va to‘laqonli nutqiy muloqotga to‘sqinlik qiladi. Og‘zaki nutqning orqada qolishi yoki umuman yo‘qligi, yozma nutqning egallanishiga, o‘qiyotgan narsalarni tushunishiga, o‘z fikrini yozma bayon etishiga, turli sohalardan bilim egallashiga yo‘l bermaydi.

3. Eshituv holati va nutq o‘zaro bog‘liqdir. Bir tomondan, eshituvning pasayishi nutqning tabiiy ravishda o‘sishiga to‘sqinlik qiladi; ikkinchi tomondan eshitish qobiliyatining to‘laqonli ishlatilishi bolaning nutqiy saviyasiga bog‘liqdir. Nutq qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, eshituv qobiliyatidan foydalanish imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

4. Eshituv qobiliyati buzilgan bolalar eshituvning pasayishi va nutqiy saviyasiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladilar. Nutqning turli saviyada bo‘lishi quyidagi omillarga bog‘liqdir: a) eshitishning pasayish darajasiga; b) nuqsonning paydo bo‘lishiga; v) eshituv nuqsonining paydo bo‘lishidan keyinggi pedagogik shart-sharoitlarga; g) bolaning alohida xususiyatlariga.

Ko‘rsatilgan omillarning har biri bolaning nutqini baholashda muhim ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati qanchalik ko‘p shikastlansa, nutqqa shunchalik

ko‘p zarar tegadi. Eshitish qobiliyati og‘ir darajada pasaygan holda maxsus o‘qitishsiz umuman rivojlanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom.
2. Asqarxo‘jayeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chalari tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma.
3. Z.Irohimova, M.G‘aybullayeva. bolalar bog‘chalari uchun dasturlar. Tevarak – atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, badiiy adabiyot.
4. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi.
5. Olimov X.O., U.X.Olimov Psixiatriya klinikasining muqaddimasi Toshkent, 1997.
6. Korkina M.B., Tsivilko M.A., Marilov V.V., Kareeva M.A. Praktikum po psixiatri. Moskva, 1986

2-SINF “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

FARMATION OF STUDENTS‘ LINGUISTIC COMETENCES IN THE 2ND GRADE “ MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY” CLASSES

ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗИКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ 2 КЛАССА НА УРОКАХ “ РОДНОЙ ЯЗЫК И ЧИТАТЕЛЪСКАЯ ГРАМОТНОСТЪ”

Yoqubova Bonuoy Alisher qizi
Yoqubova Hilola Asrorjon qizi
BuxDUPI 2-bosqich magistranti
D.B.Axmedova
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487343

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2-sinf o‘quvchilarining “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishi, turli voqelarni o‘z nutqida bayon qilishi, bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosi, so‘zlarga so‘roq berish va shunga o‘xshash grammatik tushunchalarni amaliydan, nazariy bilimlar sifatida o‘rganishi, shuningdek, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘quv dasturi, nutqni tinglab tushunish, lingvistik kompetensiya, imlo.

Abstract: In this article, students of the 2nd grade in the lessons of “ Mother language and reading literacy” correctly pronounce speech sounds, describe different events in their speech, move syllables, head speeling of letters, asking questions and similar grammatical concepts from practice. Studies as theoretical knowledge, as well as comments on the formation of speech competences.

Key words: National curriculum, listening comprehension, linguistic competence, speeling.

Аннотация: На в статъе учащиеся 2 класса правилно данном уроке грамотности чтения произносят родной язык и звуки речи, опиывают различные события в своей речи. Транспозиция слогов, написани заглавных букв. Вщпросительные предложения и подобные грамматические понятия из практики. Обучение как теоретические знания а также коментарии по формированию речевых компетенций.

Ключевые слова: Государственная учебная программа, аудирование, лингвистика компетентностъ, правописание.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PF – 6108-son 06.11.2020.) farmonida belgilanganidek, 2021- yil 1-martga qadar malakali pedagog, ilmiy xodimlar, psixolog va xorijiy ekspertlarni (shu jumladan, Finlyandiyaning malakali mutaxassislarini) jalb qilgan holda Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tayanch umumta’lim muassasalari belgilanadi va 2021-2022 - o‘quv yilidagi ta’lim jarayonida bu dastur tajriba-sinov tariqasida joriy qilinadi.


Mazkur dastur hozirda joriy qilinib, uning oldingilaridan farqli jihatlari quyidagilar:

1. Avvalgi o‘quv dasturlari mazmuni 90% nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilgan. Yangi Milliy o‘quv dasturi mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyotdan iborat bo‘ladi va o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi.
2. O‘quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o‘quvchilarda shakllangan ko‘nikmalar baholanadi.
3. Fanlar soni va o‘quv yuklamalari optimallashtirilib, o‘quvchilar qiziqishiga ko‘ra fanlarni tanlab o‘qish imkonini beruvchi variativ o‘quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi.
4. Milliy o‘quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Ya’ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda kiritiladi.

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: **nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish** amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. “Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi

mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Jumladan, yangi yaratilgan darsliklarning bosh g‘oyasida ham yuqoridagi fikrlarning asos qilinib olinishi hech kimga sir emas. Hozir ko‘rib chiqadigan 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi ham o‘quvchidan kreativ fikrlashni dars davomida va darsdan tashqari vaqtda ham turli sohalarda o‘z tilida ravon nutq so‘zlashi; so‘z boyligining oshishi; tilni amaliyotda qo‘llashi; o‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish; barcha uslubdagi matnlar bilan tanishishi va ularni fanlararo integratsiyada o‘rganishi, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri va fikrlash doirasi shakllantirilib boriladi.

Mavzuiy rejalashtirishlar



“2-sinf o‘quvchisiga ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan qo‘yiladigan malaka talablar”ida Og‘zaki nutq, Tinglab tushunish, O‘qib tushunish, Yozma nutq va lingvistik kompetensiya keltirilgan.

OTO‘S.2.LK.1 tovushlarni taniydi, ularni harflarga moslashtira oladi, tovushlarni qo‘shib so‘z hosil qila oladi, tovushlar joylashuvini o‘zgartirib yoki tovushni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi.

OTO‘S.2.LK.2 bo‘g‘inlarni taniydi, ularni qo‘shib so‘zlarni talaffuz qila oladi, bo‘g‘inlarni birlashtirib, joylashuvini o‘zgartirib yoki bo‘g‘inni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi.

OTO‘S.2.LK.3 sinf darajasiga mos badiiy matnlarda qofiyadosh so‘zlarni taniydi va ayta oladi.

OTO‘S.2.LK.4 sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnlardagi so‘z birikmasi, notanish so‘z, iboralarning ma’nosini berilgan kalit so‘zlar orqali aniqlaydi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llaydi.

OTO‘S.2.LK.5 sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnda berilgan ishora so‘zlar asosida fanlar kesimida so‘z va atamalar (notanish so‘z, sinonim, antonim, so‘z shakllari kabilar)ning ma’nosini aniqlaydi, atamalarni to‘g‘ri talaffuz qiladi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi.

OTO‘S.2.LK.6 gaplardagi birinchi so‘zlar hamda ismlarni bosh harf bilan yoza oladi.

OTO‘S.2.LK.7 sinf darajasiga mos sodda gaplarning egasi, kesimi, aniqlovchisini farqlay oladi.

OTO‘S.1.LK.8 sinf darajasiga mos matnlarda gaplarning darak, buyruq, so‘roq hamda his-hayajon ohangida ekanini aniqlaydi, og‘zaki va yozma nutqida to‘g‘ri qo‘llay oladi.

OTO‘S.2.LK.9 sinf darajasiga mos matn hamda so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini amalda qo‘llay oladi.

OTO‘S.2.LK.10 sinf darajasiga mos matnlarda ot, sifat, fe’llarni aniqlaydi hamda ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi.

1. **OTO‘S.2.LK.11** asosiy husnixat, imlo, bo‘g‘in ko‘chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga mos, o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi 1-4-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”[1]

Darslikning 5-mavzusi Anvar Obidjonning “Mahallamiz jarchisi” she’ri bo‘lib, doskada mavzu yozilib, o‘quvchilarga mavzuga kirish uchun savollar beriladi:

1. O‘quvchilar, jarchi haqida eshitganmisiz?
2. Jarchi nima ish qiladi?

[1] Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun Milliy o’quv dasturi 1-4-sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi”

So‘ng muhokama boshlanadi, o‘quvchilar jarchi haqida eshitganlarini so‘zlab beradilar. So‘ng fikrlar jamlanib, mavzuga qaytiladi. She’r muallifi bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarga iloji boricha Anvar Obidjonning surati ko‘rsatiladi, u haqida qisqacha ma’lumot beriladi (shoir she’rlari bilan 1-sinfda ham tanishishgan bo‘ladi; ular esga olinadi.) O‘quvchilar olgan bilimlari umumlashtiriladi hamda she’r navbatma-navbat ifodali o‘qiladi. She’r o‘qib bo‘lingandan so‘ng, quyidagi savollar orqali uning mazmun-mohiyati yanada oydinlashadi.

1. Hakka nima uchun shaqilladi? Shaqillash nima?

Savolga javob berish jarayonida o‘quvchilardan hakka haqida nimalarni bilishlari, u nima uchun shaqillagani, shaqillash nima ekani, she’rning qaysi misrasida bu haqda aytilgani so‘raladi.

2. Hakka kimga qanday ish qilishni buyurdi? Osh pishirish, choy damlash, dasturxon yozish va non yopish, bog‘dan mevalarni uzish, idish-tovoqlarni yuvish, hovlini supurish, yo‘lakka suv sepish vazifalari kimlarga tegishli ekanini aniqlashadi.

3. Hakkaning “Mehmon kelgan uyda – to‘y” degan fikriga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

4. Uyingizga mehmon kelganida oila a’zolaringiz qanday ishlarni bajarishadi? Siz-chi? 3–4-savollarda berilgan fikr izohlanishi, o‘quvchining oilasidagi mehmon kutish odati bilan bog‘lanishi mumkin.


5. She’rga yana qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?

5-savolda she’rga sarlavha qo‘ying topshirig‘i berilgan bo‘lib, eng chiroyli sarlavhalar xat taxtada yozib borilishi mumkin.[2]

Shundan so‘ng matndagi qofiyadosh so‘zlar topilishi va bu nimaga asoslanayotganligi ko‘rsatib o‘tiladi. She’rdagi so‘zlar imlosi va talaffuzi to‘g‘ri bo‘lishi uchun o‘quvchilar bilan birgalikda imlo lug‘ati tashkil etilib, so‘zlarning to‘g‘ri yozilganligini tekshiradilar hamda ularning yozilishini o‘rganib oladilar.

Quyidagi jadval asosida so‘zlarning qay tartibda yozilishi, ularning to‘g‘ri va noto‘g‘ri ko‘rinishlari ko‘rsatilib, o‘quvchilar so‘zlarning imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilishini o‘rganadilar. Jadvalda she’r matnidan dastlabki ustunda to‘g‘ri yozilgan parcha, qolgan ikki ustunda ularning noto‘g‘ri variantlari keltirilgan.

[2] 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma)



O‘quvchilar bu so‘zlarning yozilishi, talaffuzi va nutqlarida qo‘llash usullarini o‘rganadilar. Shu asosda nutqlaridagi so‘zlarni tartibga soladilar va so‘z zaxiralari boyiydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqiy kompetensiyaga erishmog‘i uchun dastlab so‘zlarning imlosi, tovush tarkibi, talaffuz jihatini bilishi hamda lug‘at boyligini oshirish yo‘lida izlanishi, mantiqiy tafakkurini o‘stirishi zarur. Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimlaridagi izlanishlar natijasi, Xalqaro baholash dasturi talab darajasiga javob beradigan yosh kitobxonni tarbiyalash maktabda, undan ham oldin oilada shakllantrilishi kerak. Bunday natijaga erishmoqlikning sinalgan usuli kitob mutolaa qilishdir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugun bitta kitob o‘qigan bola televizor qarshisida kun o‘tkazgan o‘nta bolani boshqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-son farmon.
2. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma)
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi 1-4-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dulla Quronov, Shokir Tursun. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”.: Toshkent-2021

DOES TEACHER’S WRITTEN FEEDBACK HELP UNIVERSITY STUDENTS TO IMROVE THEIR WRITING SKILL?

Ibroximova Rayxona
student of Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan
Yugay Yevgeniya Viktorovna
a scientific adviser, a teacher of Navoi
State Pedagogical Institute, Uzbekistan
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487356

Abstract: This article discusses the importance of written feedback in the assessment and learning situation is for the improvement of a student’s performance.It is vital that the process of supplying feedback is affirmative to the student

Keywords: feedback, writing skill, teacher’s capability, written feedback

Аннотация: В этой статье обсуждается вожность письменной обратной связи и ситуации оценивания успеваемости учащегося.Крайне важно чтобы процесс предоставления обратной связи был положительным для учащегося

Ключевые слова: Обратная связь, письменный навык способности учителя, письменный отзыв

If we want to discuss about some written feedback (it is effective to enhance our writing skill), first of all, we must mention of the word 'feedback'.Through giving feedback,it is possible to obtain the growth of belief, our knowledge, self-assessment, learning delight.Both positive and negative feedback of the teacher develops our writing skill.In other words,with negative feedback we can realise about our some mistakes or incapacity of us, whereas if we receive positive feedback,we are often provided with special inspiration.

Moreover, feedback can strengthen students in every way, such as goal achievement,self-regulating,work planning which are primarily essential.Owing to this we are given an impartial evaluation in our work.

Types of feedback:

–verbal

–visual

–written

It’s reported by statistics that 3/10 parts of university students who are Uzbek, is able to do something(for example, writing an essay,article or novel...) or converse with each other by writing.According of the view, written feedback of the teacher may be so powerful,both if it mainly concentrates on the subject, valuable

foundations or primary tasks and also it is utilized by students.There are some types of written feedback which are effective should be well-timed and written in clear styles are comprehensible to the students in order that they would understand easily, reread and memorize.There is no doubt that written feedback can also affect emotional processes of students, improvement of effort and enthusiasm.

Based on the result of research and discussion, it's reported that the statistics of teachers’ written comments on students’ writing skill at the university of World Languages of Uzbekistan were determined.According to the researchers, university students experienced significant improvement (56% before the study, whereas after this it reached 78%).As a result, the students had great analysis of their ideas.Furthermore,they will have an opportunity to discuss their views clearly and they are supported quite well.

Table

The result of the study conducted among students at the university of World Languages

Types of feedback	Verbal feedback	Visual feedback	Written feedback
University students	**54%**	**65%**	**78%**

There are some important guidelines for teachers in giving written feedback:

*Specifiable needs to student

You should begin with concentrating on the students and their capability, instead of last product

* Well-timed

It's required provide feedback during 48 hours in order that task is fresh

* Focused and effective

Give your readers feedback that will help them continue to write and improve their ability, that won't discourage them too much.

As we conclude our thoughts,we can say vividly that written feedback which is received by students is a beneficial part of successful learning.Undoubtedly, feedback can boost the confidence and motive of the learners eventually,their achievements.

Literature:

1. Lex.uz

2. Newspaper “Narodnoe Slovo”, December 11, 2012, No. 240 (5630);

Аслида раҳбар қандай бўлиши керак? Ҳар бир раҳбар бошқарув фаолияти жараёнида ўз вазифаларини фақат ўзига ҳос услубда бажаради. Раҳбарлик услуби раҳбарнинг жамоани ўзига юклаган вазифаларини бажаришда ташаббускорлик ва ижодий ёндашишга қандай усуллар билан рағбатлантириши, ўз қўл остидагиларнинг ишини қандай назорат қилишида ифодаланади. Иш услуби нафақат раҳбарнинг фаолиятини белгилайди, балки у тизим фаолиятини барча жабҳаларига бевосита таъсир қилади. Ҳар бир раҳбар ўзи амалида қўллайдиган бошқарув услубини яратувчисидир. Замонавий менежемент йўналишидаги шахс барча прогноз қобилиятини ишга солиб низоларни сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-аҳлоқий билимлари орқали йўлга қўйиши даркор.

Замаонавий менежемент тушунчаси ҳар бир соҳа вакларига мос. Юқорида замонавий менежементнинг соҳадаги бир йўналишини ҳамда шахс ва раҳбар муносабатлари ўрганиб чиқдик. Энди бу замонавий менежемент услубини санъат соҳасида кўриб чиқадиган бўлсак, санъат ва маданият соҳаси менежменти мамлакатимизда аҳоли турли табақалари вакилларини бадиий, эстетик, аҳлоқий, ижтимоий-сиёсий, ёъналишларда тарбиялаш, одамларнинг маънавий, ижодий фаоллигини ташкил этиш, баркамол инсонни шакллантиришдаги ўрни ва роли каттадир. Маданият ва санъат соҳасидаги ўзгаришлар, хусусан маданият ва аҳоли дам олиш марказлари, маданият ва

санъат саройлари, музейлар, маданият ва истироҳат боғлари, маҳалла гузарлари, ахборот-ресурс марказлари, кутубхоналар, рассомлик галериялари орқали амалга оширилиб келинмоқда.

Маданият ва санъат менежменти хақида икки йўналишда сўз кетади. Биринчидан, кенг маънода инсон яшаш шароити услублари ижтимоий вокелик сифатида шахс ижтимоийлашувига тааллуқли бўлмаган ҳолда ва ижтимоий ҳодиса тизимига оид фикрлар: маданият ва санъат моддий ва маънавий муҳитни ифодалайди, инсонни шаклланиши ва юксалишига имкон яратади. Иккинчидан, тор маънода, жамият ҳаётидаги аниқ доирага оид фикрлар: (маданият ва санъат доираси). Маданий-тарихий меросни сақлаш ва улардан фойдаланишни қамраб олади (музей, кутубхона, архив ишлари, миллий ва маҳаллий анъаналар, байрамлар ва бошқалар). Бадиий таълим ва болалар ижодиёти, санъат, ижодий (бадиийликка уйғун) фаолият, контсерт фаолияти, бўш вақтда кўнгилочар ишларни ташкиллаштириш, ҳаваскорлик, этнографик санъат ва ҳунар, шунингдек, уларни таъминлаб берувчи фаолият (маданият иқтисодиёти, молиялаштириш, бошқарув, ахборот, касбий фаолиятга тайёрлаш ва қайта тайёрлаш). Маданият доирасидаги фаолият турли расмий идоралар (давлат, мунитсипал, хусусий, жамоат ташкилотлари ва ҳ.к.), шунингдек, айрим одамлар томонидан амалга оширилади. Бундан сўнг уларнинг барчаси қисқа қилиб фирмалар деб аталади. Ҳозирги глобаллашув жараёни меҳнат менталитетига ҳам ўз таъсирини ўтказади. “Кейинги вақтларда ташкилот маданияти деган термин илмий муомалага ҳам киритилди. Ушбу масала бўйича тадқиқот олиб бораётган таниқли сотсиолог М. Бекмуродовнинг фикрича, ташкилот маданиятимуассасанинг нафақат ишчанлик хусусиятини ифодалайди, балки ташкилотга хос бўлган маданиятнинг ҳар бир ходим хатти-чаракатларида акс этиши, шахснинг феъл-атворлари мотиви даражасига юксалишини назарда тутади. Ташкилот маданияти ходимлар томонидан ўз-ўзича ўзлаштирилмайди, балки режали асосларда изчиллик билан мутахассислар онги, руҳиятига сингдириб борилади”.

Маданият ва санъат соҳаси менежментининг дастлабки кўринишларидаги фаолияти ҳисобланган Маданият ва санъат соҳаси менежментининг юқори босқичи одамларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, қўшимча касблар, ҳунарларни ўрганиш, қизиқишлар асосидаги клублар, тўгаракларда фаолият юритиш сингари машғулликлар тарзида амал қила бошлади.

Маданият ва санъат соҳаси фаолиятидаги тадбирларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири у бир марта ташкил килиниб, асосан, бир марта намойиш қилинади. Агар спектакллар, кинофилмлар тайёрланганидан сўнг юзлаб марта намойиш килинса, ижтимоий-маданий муассасалардаги тадбирлар, асосан, такроран қўйилмайди. Маданият ва санъат соҳаси менежменти

тадбирларининг деярли хаммаси худди шу хусусиятга эга. Факат бадиий тарғибот-ташвикот жамоалари, баъзи мавзули концерт дастурлари бир марта тайёрланиб, хар хил жойларда бир неча марта намойиш этилиши мумкин. Улар маълум вақт мобайнида (масалан, маълум мавсумда, иш жараёнида, яъни пахта, ғалла йиғим_теримида...) бир неча марта намойиш қилиниши мумкин. Лекин маълум муддатдан сўнг, албатта бошқа янги дастур тузишга тайёргарлик кўрилади. Агар театрда қўйилган песани яна бир неча йилдан кейин қайтадан саҳналаштириш мумкин бўлса, ижтимоий-маданий муассаса тадбирларида бу ҳолат такрорланмайди. Бирор тадбир сценарийси схемасини иккинчисига қўллаш мумкин эмас. Ҳар қандай янги стсенарий янги тузилишни, янги меҳнатни талаб қилади. Санъат соҳаси бошқаруви-бу жамоа миқёсидаги ижодий жараён сифатида намоён бўлади. Қишлоқлардаги жамоат ташкилотлари эса шахсни маданият ва санъат соҳаси фаолиятига жалб этишга ёъналтирувчи субъэкт сифатида жамоат фаолиятининг намоёндаси хисобланувчи алохида шахс эмас, балки жамоа, бирлашма, маданий уюшма ёки кенг халқ оммаси ўртасида маънавий фаолият олиб борувчи жамоат ташкилотлари белгиланади. Айни пайтда жамоат ташкилотлари фаолиятининг самарадорлиги улар билан индивидуал ижодий фаолият бирлигига боғлиқлигини хам хисобга олиш зарур. Санъат соҳаси бошқарувида иштирок этувчи субъектлар табиатига кўра индивидуал, гурухли ва оммавий каби шаклларга ажратилади. Ижтимоий-маданий фаолиятнинг хар бир турига муайян шакл мос келади. Ўқиш, амалий санъат асарлари билан танишиш санъат асарларини умумлаштиришнинг индивидуал шакли хисобланади. Бадиий ижрочиилк, туризм ва хаваскорлик ижодий бирлашмалари бадиий қадриятларни оммалаштиришнинг гурухли шакли хисобланса, спектакллар, филмлар, концертлар томоша қилиш ва байрамларда иштирок этиш маданий фаолиятнинг юқорида баён қилиб ўтилган индивидуал, гурухли ва оммавий шакллари муайян маданий анъаналарнинг уйғунлигини назарда тутади.

Маданият ва санъат соҳасида ҳам бошқа соҳларларда ҳам замонавий менежемет тамойии бир хил вазифани бажаради. Шундай экан глабаллашув жараёнида тезлик, аниқлик ва сифат юқори даражада тус олмокда. Ҳар қандай иш у хох бизнесс йўналиши хох давлат тасаруфидаги иш бўлсин, замонавий менежемент йўналиши соҳа ривожи учун хизмат қилиб келади.

Фойдаланган адабиётлар:

1.Каримов И.А. Асосий вазифамиз-ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаравонлигини янада юксалтиришдир. -Тошкент Ўзбекистон, 2010.

2.Каримов И.А. Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш -ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2014

MUTAFAKKIRLAR IJODINI O‘RGATISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

To'raqulova Hilola Xo'janazarovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
81-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7487390

Annotatsiya: Maqola umumta’lim maktablari adabiyot darslarida ulug‘ so‘z san’atkorlari Navoiy va Bobur ijodlarini o‘rgatishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ma’nolar xazinasi atalmish mumtoz adabiyot bo‘stonidan o‘quvchilarni baxramand etish to‘g‘risida yozilgan.
Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, g‘azal, texnologiya, ma’naviyat, meros.

Bu ona zaminda ko‘plab buyuk insonlar yashab kelajak avlod uchun ulkan ma’naviy, tarbiyaviy meros qoldirganlar. Ushbu ma’naviy merosni o‘qib, o‘rganib millatimizga xos bo‘lgan fazilatlarni ong-u shuurimizga yanada ko‘proq singdirib boramiz. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti tom ma’noda chin insoniy fazilatlarni o‘rgatuvchi maktab. Umumta’lim maktablari adabiyot darslarida mumtoz adabiyot namoyondalari ijodini o‘rganishda innovatson ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda ko‘plab innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mumkin.

“Ikki qismli kundalik” usuli o‘quvchilarning yozma nutqni rivojlantiradi. Masalan, Navoiy g‘azallarini ham ilmiy jihatdan, ham badiiy jihatdan tahlil qilish 45 daqida vaqt mobaynida qiyin, albatta. O‘quvchilarga g‘azalning faqat bir baytini tahlil qilish topshiriladi va ular ketma-ketlikda g‘azal baytlarini tahlil qiladilar. Bu usulni qo‘llash orqali biz darsda barcha o‘quvchilarning faol ishtirok

etishiga erishamiz. Qolaversa, ular mumtoz asarlarning ramziy ma’nolarini tushunishga o‘rganadilar.

Fikr	Sharh
Mehr emas, ohim o‘tidin ko‘kka yetmish bir sharar, Ayb emastur gar desam: “Dam ursam afloq o‘rtanur”. (mubolag‘a san’ati.)	Alisher Navoiyning baytida oshiqning sevgilisi hajrida chekkan iztiroblari g‘oyatda kuchaytirilib tasvirlangan: ko‘kdagi quyosh oshiq yerda chekkan oh o‘tining bir uchquni emish. Bu bo‘rtirilgan tasvir tufayli oshiq qiyofasi, ruhiy holati, ichki olami, qalbida mavj urgan ehtiroslari ta’sirchan, jozibali ifodalangan. Bu xil tasvir shartli ekanini his qilamiz, uning vositasida yoridan

A. Navoiy	ayrilgan inson kechinmalarining eng yuqori darajasini aqlan anglashimiz mumkin, hamda oshiq qalbining iztiroblari haqiqatdan ham nihoyat darajada kuchli ekaniga ishonch hosil qilamiz.

“SWOT tahlil”- inglizcha so‘zlarning qisqartmasidan hosil bo‘lgan. U bitta masalaning to‘rt qirrasini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

S - strength **– kuch**

W - weakness **– zaiflik**

O – opportunities **– imkoniyat**

T- thereat **– xavf-xatar**

Bu usuldan ham adabiyot darslarida keng foydalanisa bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi asar qahramonlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI XUSRAV OBRAZIGA “SWOT- TAHLIL” USULI ASOSIDA TAVSIF BERISH

K (kuchli jihatlari) Hukmdor sifatida katta qudratga ega	Z (zaif tomonlari) Hamma narsani zo‘rlik va boylik hal qiladi deb o‘ylaydi
I (imkoniyatlari) Kuch bilan Shiringa egalik qilishi mumkin	X (xavf-xatarlari) O‘g‘li Sheruyaning axloqsizligi, otasini hurmat qilmasligi hamda qo‘l ostidagilarning noroziligi

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI FARHOD OBRAZIGA “SWOT- TAHLIL” USULI ASOSIDA TAVSIF BERISH

K (kuchli jihatlari)	Z (zaif tomonlari)
Jismoniy imkoniyatlari, Ko‘p hunar egasi ekanligi, ma’naviy barkamolligi	Ishonuvchanligi, sodda beg‘uborligi
I (imkoniyatlari)	**X (xavf-xatarlari)**
Egallagan hunarlari va muhoraba qilish salohiyati tufayli dushman qo‘shinini butunlay yo‘q qilishi mumkinligi	Ishonuvchanligi va soddaligidan yovuz kuchlarning foydalanishi

Bu metodni o‘qituvchi ijodiy yondashib davom ettirgan holda yakunlashi kerak. Ya’ni aytilgan tavsiflardan hayotiy, badiiy umumlashma chiqarib, xulosaga kelish topshirig‘ini berishi mumkin. Masalan, Xusrav haqidagi fikrlardan insonga tegishli hokimiyat, kuch-qudrat, cheksiz boylik ma’naviy tubanligi bois uning zaif tomonining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan. Aynan Xusravning hukmdorligi, cheksiz cherik va katta xazinaga egaligi uning ojizligi bo‘lmish hamma narsani zo‘rlik, boylik hal etadi deb o‘ylashiga olib kelgan.

Farhod uchun xos bo‘lgan ishonuvchanlik, sodda beg‘uborlik bir qarashda doimo simpatiya uyg‘otuvchi xarakter xususiyat bo‘lib ko‘rinadi. Lekin ular qahramon tushib qolgan muhitga ko‘ra zaifligining atributlari tarzida namoyon bo‘ldi. O‘quvchilarga shuni singdirish kerakki, demak, ijobiy yoki salbiy, go‘zal yoki xunuk ko‘ringan narsalarning haqiqiy bahosi ba’zan inson tushib qolgan muhit, bu muhitda kishi o‘zini qanday tutishi yoki unga yuzma-yuz kelgan insonlarning munosabatidan kelib chiqib, boshqacha qiymat, baho olishi mumkin. Bunday ijodiy yechim, xulosa orqali o‘qituvchi shogirdlarini chigal, g‘oyat murakkab, hamisha jumboq kishilik turmushiga tayyorlaydi, ularga turli hayotiy vaziyatlar, turfa sajiyali insonlar bilan yuzlashganda eng to‘g‘ri yo‘l yoki qarorni tanlay bilish muhimligini singdiradi.

“FSMU” – texnologiyasidan munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzu va bo‘limlardagi ba’zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida, o‘quv rejasi asosida biror-bir bo‘lim o‘rganilgach qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlashga o‘rgatadi. Bu usul orqali sinfda bahs-munozara

tashkil etilib, o‘quvchilarni ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intiltirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lishga o‘rgatiladi.

Vazifa: Bobur ruboiylari yuzasidan fikringizni bayon eting.

F – Bobur ruboiylarining ko‘pchiligi hasbi hol xarakterida.

S –Vatandan bosh olib chiqib ketishiga majbur bo‘lgan shoir o‘z ruboiylarida hayotda ko‘rgan ozorlarini, boshidan o‘tkan qiyinchiliklari hamda qalbda tuygan yurt sog‘inchini boshqa janrlarda bo‘lgan kabi ruboiylarida aks ettirgan.

M – Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ boldi,

Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yub, Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ boldi.

Baxtim yo‘qligi jonimga balo bo‘ldi, deydi shoir. Chunki baxtsizlik uni vatanidan ayirdi. Demak, uning baxti-vatanda bo‘lishdir. Ikkinchi satrda nima ish qilgan bo‘lsam, xato bo‘ldi, deydi u. Vatanni tashlab chiqishi xatto, uning uchun jonini bermagani va boshqa ellarga bosh olib ketishi xato. O‘z yerni qo‘yib, Hindiston tomon ketishi taqdirida bor edi. Ana shu ayriliqni yuz qarolig‘ deb bilgan Bobur.

U – Bobur vatandan ayrilmaslikni baxt deb bilgan. Umr bo‘yi o‘z yurtiga qaytishni orzu qilib yashagan

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarimiz ulug‘ mutafakkirlar hayoti va ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiy va Boburning sehrli so‘zlarini qalbiga o‘rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Mutafakkirlarning saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, ilm-ma’rifatni-nodonlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Ko‘ngliga shunday ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boradi. Ulug‘ allomalarimizning ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o‘taydi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. Toshkent,1998.

2. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. Toshkent: O‘qituvchi. 1995.

3. Jumaniyozova M.T., Ishmuhammedov R.J. Ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent: Iste’dod, 2012.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. Xamsa: Farhod va Shirin. – T.: 1991-yil

5. Nuriddinov M. “Boburiylar sulolasi”, “Fan” nashriyoti, T-1994.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Bo‘riyeva Marhabo Fayziyevna
Toshkent shahar Olmazor tumani
234-maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumuy o’rta ta’lim maktablari ona tili va adabiyot darslarida o’quvchilarning nutq ko’nikmalarini shakillantirishga doir fikr-mulohazalar yurutilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim tizimi, metodika, kompetensiya, ko’nikma, nutq, ona tili va adabiyot, badiiy asar.

Bugungi kunda axborot manbalari shu qadar takomillashganki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi eng qulay, eng zamonaviy, eng qiziqarli, eng oson usullarni qo‘llash orqali o‘quvchiga zaruriy bilimlarni yetkazmasa ko‘zlangan maqsadga erishishi qiyin. Bu undan nafaqat o‘z kasbining bilimdoni, balki o‘z kasbining fidoyisi, o‘rni kelganda aktyori bo‘lishini talab etadi. Keling, o‘quvchilar bilimida aniqlanayotgan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida yozma ishlarning muhim va sinalgan turi – insho yozish tajribasini amalda tadbiq etish bo‘yicha fikrlashamiz. Insho so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, “paydo qilish”, “yaratish”, “ijod”, “yuzaga keltirish”, “sochma sar” singari ma’nolarni bildiradi. Insho o‘quvchilarning tabiiy monologik nutqining yanada mukammal bo‘lishiga, nutqiy faoliyatining boyitilishiga qaratilgan mashq turi hisoblanadi. Bu mashqni yirik hajmda, bog‘lanishli murakkab matn deb olishimiz mumkin.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakat oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun yoshlarimiz mavzuni anglab mohiyatiga yetishdan ko‘ra savollarni yod olishni afzal bilishadi. Natijada yoshlarimizning og‘zaki va yozma nutqining shakllanishida jiddiy muammolar vujudga keldi. Ularning yozma savodxonligi va nutqiy ko‘nikmalari susayib, oddiy bitta jumlani ham talab me’yorlarida to‘g‘ri gapirish va yozishni bilmay qoldilar. Bugungi kun o‘quvchisi texnologiyalar asrida yashamoqda. Shuning uchun biz odatlanib qolgan insho yozdirish usuli o‘quvchi uchun biroz zerikarli tuyuladi. Natijada u tezkor va ommabop axborot manbai – internetdan tayyor matinni ko‘chirib qo‘ya qoladi. Biz endi o‘quvchilardan Videoinsho olishimiz kerak. Videoinshoning boshqa insholardan farqi shundaki, insho yozish jarayonida o‘quvchining yozma nutqi bilan birgalikda og‘zaki nutqi ham rishakllanadi. Bunda insho muallifi o‘zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyo qarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan lavhalar hamda unga ohangdosh tarzda

jaranglovchi musiqadan foydalanadi. ***Videoinsho yaratish quyidagi uch bosqichni o‘z ichiga oladi:***

1. *Inshoning qoralama nusxasini tayyorlash.*
2. *Uni oqqa ko‘chirib yozish.*
3. *Qo‘shimcha darsda Videoinsho tayyorlash.*

Videoinsho yaratishda quyidagi harakatlar amalgam oshiriladi:

1. Insho yoziladi.

2. O‘qituvchi tomonidan tekshirilgan insho muallif tomonidan o‘qilib, ovozi kompyuter yoki telefon diktofoniga yoziladi.

3. Insho mazmuniga mos kuy tanlanadi.

4. Insho mazmuniga mos vidiolavhalar tayyorlanadi.

Videoinshoning kirish qismida mavzu bo‘yicha lo‘nda va aniq fikrlarni bitish maqsadga muvofiqdir. Bu qism umumiy ishning 15 foizini tashkil etadi. Videoinshoning asosiy qismi mavzuning butun mazmuni, o‘quvchilarning dunyo qarashini, fikrlash doirasini o‘zida yaqqol ifodalab turuvchi bo‘lim sanaladi. Inshoda berilgan fikrlar musiqa va lavhalarga mos va monand bo‘lishi kerak. Videoinshoning intervyu qismi o‘quvchi yaratgan Videoinshoning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi unda o‘quvchi kamera qarshisida mavzuning eng dolzarb joyi haqida intervyu beradi. Bu qism umumiy ishning 70 foizini tashkil qiladi. Videoinshoning xulosa qismida mavzusi yuzasidan umumiy xulosalari ifodalanadi. Mavzuning hozirgi davr bilan bog‘liq jihatlari, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondoshlarimiz uchun namunaviy tomonlari haqida fikr yuritiladi. Bu qism 15 foizni tashkil qiladi. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash, shevaga xos so‘zlardan qochish, adabiy til me’yorlariga rioya qilish inshoning qimmatini oshiradi. Eng asosiysi, insho matniga mos kuy va lavhalar tanlashdir. O‘quvchilar Videoinshoni yaratganlarida quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

1. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, telefon, kompyuter...) foydalana olish; media vositalaridan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, xavfsizligini ta’minlash foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish, ma’lumotlar bazasini yarata olish layoqatlari shakllanadi.

2. Milliy va umuminsoniy kompetensiyalar – Vatanga sadoqat, insonlarga mehr - muhabbat, milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, o‘z an’ana va marosimlarni hurmat qilish, ma’naviy va madaniy merosimizni avaylab asrash layoqatlari shakllanadi.

Fanga doir:

1. Lingvistik kompetensiya – o‘quvchining til bo‘limlari bo‘yicha olgan bilimlari, bu bilmlarini amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasi, hosil qilish ko‘nikmasini hosil qilish.

2. Nutqiy kompetensiya – insho matni mazmuni anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda ischil ifodalay olish layoqatlari shakllanadi.

O‘quvchi shahsida ijodkorlikni, vatanga, ota-ona va yaqinlariga nisbatan muhabbatni shakllantirish hamda tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, insonlarga va jonzodlarga nisbatan mehroqibatini hamda kuchli qiziqishini uyg‘otish darkor. Bolani o‘zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko‘rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma’qul. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘quvchilarga biz mustaqil fikrlab, mustaqil topshiriqlarni bajara oladigan qibiliyatni shakillantirsakkina oldimizga qo‘yilgan yuksak vazifani uddalay olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Mengliyev. Ona tili ta’limi: davr talabi va ijtimoiy zarurat. “Ma’rifat” gazetasining 2017 – yil 22 – fevral soni.

2. O. Madayev, A. Sobirov, Z. Xolmanova, Sh. Toshmirzayeva, M. Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant.

3. B. Mengliyev, X. Suvonova. Ona tilini emas, ona tilidan o‘rgatish kerak “ Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2017 – yil 10 – soni.

МУЛЬТИМЕДИА КАК СРЕДСТВО ПОВЫШАЮЩЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Алексеева Анна Александровна
учительница начальных классов
в 145- школе Яшнабадского района города Ташкент

Аннотация: Современный период развития общества характеризуется сильным влиянием на него информационных технологий, которые проникают во все сферы человеческой деятельности, обеспечивают распространение информационных потоков в обществе, образуя глобальное информационное пространство. Неотъемлемой и важной частью этих процессов является компьютеризация образования. Она заключается в потребности учителей в эффективных способах использования средств мультимедиа в учебно-воспитательном процессе начального образования.

Ключевые слова: Инновация, интеракивность, мультимедиа, ИКТ, инновационное образование.

В настоящее время растет интерес к применению инновационных педагогических и информационных технологий в образовательном процессе. Одна из основных причин этого заключается в том, что в традиционном образовании учащихся учат получать только готовые знания, а в начальном образовании современные технологии учит их искать собственные знания, изучать и анализировать самостоятельно и даже делать собственные выводы. В этом процессе педагог создает условия для развития, формирования, приобретения и воспитания личности.

Педагогические технологии повышают качество и эффективность учебного процесса, формируют процесс самостоятельного мышления учеников. Повышает желание и интерес учеников к изучению предмета, укрепляет знания, усваивает, формирует умение свободно использовать их на практике.

Лексически термин «инновация» в переводе с английского означает «инновация». Инновационное образование - это образование, которое позволяет учащемуся создавать новые идеи, нормы, правила, передовые идеи, нормы, качества, навыки, связанные с естественным принятием правил, созданных другими. Педагогическая технология - это искусство и умение в реализации образовательной функции, которое является основой для развития знаний, навыков и умений учащихся в очень удобной форме.

Повышение качества и эффективности начального образования во всех общеобразовательных школах требует внедрения современных педагогических, инновационных и информационных технологий в образовательный процесс, распространения передового опыта. Основные задачи инноваций и информационных технологий в начальном образовании:

- *- общее комплексное развитие учебного процесса;*
- *- определение конкретных целей и задач, которые необходимо решать в образовательном процессе;*
- *- разработка содержания образовательного процесса;*
- *- организация мониторинга и оценки деятельности учеников;*
- *- реализация целей и задач Национальной программы обучения;*
- *- ускорить распространение информации о научно-техническом прогрессе среди молодежи.*
- *Использование инноваций и информационных технологий в начальных классах открывает следующие возможности:*
- *активизация учебной деятельности учеников, повышение качества учебных материалов и эффективности обучения;*
- *дифференциальный подход к ученикам с разным уровнем подготовки и организация занятий на высоком эстетическом уровне (музыка, анимация)*

Модернизация содержания начальной школы, внедрение инновационных педагогических и мультимедийных технологий в учебный процесс на основе передового опыта с особым упором на наращивание потенциала, радикальное повышение качества и эффективности начального образования определены как приоритеты государственного образования.

Мультимедийные пособия созданы для обеспечения реализации задач, поставленных пунктом 71 Постановления Президента Республики Узбекистан от 19 февраля 2014 года № ПП-2133 «О Государственной программе «Год здорового ребенка» и внедрения передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий.

В этих методических пособиях приведены цели и задачи уроков русского языка 1-4 классов, методические указания и рекомендации по внедрению передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс. Мультимедийные приложения также были разработаны для повышения вовлеченности учеников и повышения их мастерства посредством мышления. Мультимедийные приложения учебников включают: анимацию, видео, произношение букв и слов, работу над словарем, образцы каллиграфии, контрольные задания, дидактические игры, мультфильмы, образцы на минуту

отдыха, упражнения на тренажере, задания по рисованию, упражнения-головоломки.

В них использованы различные таблицы, ребусы и головоломки, чтобы помочь ученикам легко осваивать языковые материалы, выполнять грамматический анализ простым и понятным образом и учить творческому мышлению. В контексте упражнения ученикам даются задания, которые поощряют творческое мышление, рассуждение, делают выводы на основе сравнения, анализа, синтеза и наблюдения, а также обеспечивают выполнение анализа в определенной последовательности. Кроме того, в руководствах есть «Краткий ответ на короткий вопрос», «Кто выбирает больше всего слов», «Обратный тест», «Соль слов», «Цифровое позиционирование», «Три истины, одна ложь», «Скелет рыбы», «Водосток», » Эффективно использовались передовые педагогические методы, такие как «Паутина», «Оценка», «Мозаика», «Блиц-опросник», «Диаграмма Венна».

Использование мультимедиа в учебном процессе - один из самых удобных способов обучения, повышающий качество и эффективность обучения.

Мультимедиа - это современная компьютерная информационная технология, которая позволяет объединить текст, звук, видео, графику и анимацию в единую компьютерную систему.

В результате формирования у младших школьников необходимых навыков, повышения качества и эффективности начального образования на новый уровень, внедрения современных методов и средств обучения: позитивное отношение ребенка к чтению сегодня -помогает развивать такие навыки как самоуправление, командное поведение, усвоение правил письменной и устной культуры, организация учебной деятельности.

Преимущество мультимедийных приложений для учителей: позволяет учителям постоянно работать над собой. Они всегда готовы к уроку. Уроки организованы нетрадиционно. Повышается успеваемость учеников. Помогает заполнить пробелы пустыми поглотителями. Дает возможность учителю работать вместе с родителями. Преимущество для учеников: повышенный интерес к чтению, высокая успеваемость по чтению. Делать домашнее задание несложно, даже если вы пропустите урок, оно позволяет освоить новую тему, учит самостоятельному, свободному мышлению. На следующем этапе возрастает желание учиться, улучшаются отношения со взрослыми и сверстниками. Преимущество для родителей: родители имеют четкое представление о том, как помочь своим детям дома и как улучшить их чтение.

Представлять ученикам учебные задания с помощью мультимедийных средств несколько удобно. Потому что мультимедийные инструменты служат для того, чтобы ученикы работали независимо. Призывает каждого ученика

взаимодействовать и сотрудничать с учителем и одноклассниками. В таких ситуациях мультимедийные средства выполняют отдельную дидактическую функцию.

Использованная литература

1. Исламова, М. Ш. "Касбий дунёқарашни шакллантириш асослари." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 78-87.

2. Андреев О. Ролевая игра: как ее спланировать, организовать и подвести итоги / О. Андреева // Школьное планирование. – 2010. – №2. – С. 107–114.

3.Громова О.К. Критическое мышление – как это по-русски? Технология творчества // БШ. – 2001. – №12.

KIMYO FANI DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Turg‘unpo‘latova Shodiya Rustamjon qizi
Namangan viloyati Namangan tumani
19-sonli IDUM kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyo o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi o’quvchilari va kimyo fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. O‘quv maqola Davlat ta‘lim standartlari talablari va fanning namunaviy o‘quv dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar bilan birga kimyo fanida qo‘llaniladigan interfaol ta‘lim metodlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Munozarali darslar, konferensiya darslari, erkin fikrlash darslari, didaktik o`yinlar, aqliy hujum metodi.

Hozirgi paytda kimyo fanini o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni jadal sur’atlar bilan kirib kelishi natijasida kimyoviy bilimlarni o‘rganishda juda katta yutuqlarga erishildi. Kimyoni o‘qitishdagi yangi pedagogik va axborot kommunikatsion (kompyuter) texnologiyalarini qo‘llashning mohiyati va talabi o‘quvchilar (va talabalar) O‘zbekiston Respublikasi uchun chuqur bilimli yetuk mutaxassislar bo‘lib etishishini ta’minlashdir.

Hozirgi paytda kimyoni o‘qitishda, o‘z-o‘zini nazorat qilish, BBB metodi, “aqliy hujum”, “Insert”, “Sinkveyn”, “Venn diagrammasi” va kimyoviy o‘yinlardan mashg‘ulotlarda foydalanish usullari yuqori samara bermoqda va o‘quvchilarni dunyoqarash doirasini kengaytirmoqda. O‘quvchilarni kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarida masofadan o‘qitish, onlayn darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, muammoli ma’ruza matnlari, elektron darsliklar va virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim to‘g‘risidagi islohotlarning asosini shakllantiruvchi qator me’yoriy hujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Bulardan “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar alohida o‘rin tutadi. Bu qonunlardan kelib chiqadigan asosiy vazifa ta‘lim samaradorligini oshirish va yangi pedagogik hamda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib sifatli dars o‘tishdir.

Munozarali darslar

Munozarali darslar ham muammoli ta‘lim texnologiyalariga asoslanadi. Munozarali darslar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra:

Ilmiy munozara darslari;

Erkin fikrlash darslariga ajratiladi.

Ilmiy munozara darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag`ishlanadi.

Mazkur dars oldida quyidagi vazifalar turadi:

O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish. O‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo‘llanishi orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish. O‘quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo‘lgan intilishlarini rivojlantirish. O‘quvchilarni nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z fikrlarini lo‘nda va mantiqan to‘g`ri bayon etish, ularda dalillash ko‘nikmalarini hosil qilish. Masalan: Kimyo fanidan munozarali darslar «Atrof muhitning kimyoviy ifloslanishi», «Kimyoviy preperatlar orqali o‘simliklarni rivojlanishi», «Kimyo sanoati korxonalarining ko‘payishi» kabi mavzulardagi umumlashtiruvchi darslarda foydalaniladi.

Ilmiy munozarali darslarning tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o‘tkaziladigan muammolarning umumiy obzori, darsda o‘quvchilar guruhi bajaradigan topshiriqlar bilan tanishtiradi. O‘quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli vazifalarni bajarish va hal etishga yo‘llash.

1. O‘quvchilar guruhi o‘rtasida o‘quv bahsi va munozarani tashkil etish.

2. O‘quv bahsi va munozara yakuni. O‘qituvchi dars davomida bahs va munozara keltirib chiqargan muammolar yechimidagi asosiy g`oya va tushunchalarni takidlab, xulosalar chiqaradi.

3. O‘quvchilarni baholash. O‘quv bahsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag`batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

Didaktik o‘yinli darslar orasida muhim o‘rin tutadi. Konferensiya darslari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, ko‘nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi konferensiya darsini o‘tishdan avval dars mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko‘zdan kechiradi. Mazkur dars o‘tishdan 10 kun oldin dars mavzusi e‘lon qilinib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Interfaol usullar bilan o’tkazilgan darslar o’quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o’zaro bir-biri bilan muloqatga va xatto o’zi xulosa chiqarishga o’rgatadi. Qo’llanmada keltirilgan interfaol dars usullari kimyo darslarini yanada qiziqarli o’tkazishga va barcha o’quvchilarni dars davomida faol qatnashishiga undaydi. Bu usullar bilan dars olib borgan ‘oqituvchi sinflarda yuqori sifat ko‘rsatgichiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari.

2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami;

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	Yusupova Iqboloy Axmed qizi MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	4
2.	Abdullaev Rustam Ubaydullaevich DEVELOPING THE MUSICAL ABILITY OF STUDENTS IN MUSIC CULTURE LESSONS	7
3.	Bayramova Shohida Dilshodbek qizi MULTIMEDIALI WEB ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI	10
4.	O‘ZBEKISTON TARIXINI DAVRLASHTIRISH MASALALARI Murodova Gulzora Turobovna	16
5.	Hayitova Muqaddas Eshboyevna UMUMIY O`RTA TA’LIM TEXNOLOGIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	18
6.	Ajimov Eradil Abdimuratovich JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DARSLARI INTEGRATSIYASI	21
7.	Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li ARISTOTELNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI	24
8.	Ganiyev S.T, Djurayev R.U Rayxonov Sh.Z BURG‘ULASH ISHLARIDA QO‘LLANILADIGAN DIZEL ELEKTR STANSIYASI ICHKI YONUV DVIGATELINING TUTUN GAZLARI EJEKSIYASI UNING SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH	29
9.	Islomova Shakhrizoda Kilicheva Farida FEATURES OF AUDIT PLANNING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	34
10.	Abdullayeva Gulnora Mengaliyevna BOSHLANG‘ICH SINFO‘QUVCHILARI BILAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH	39
11.	Xonkelov Yassim Komiljon o‘g‘li G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDA MUHIM AHAMIYATI	41
12.	Qurbonova Nazokatxon Iqboljon qizi Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi Baratboyeva Muxlisa Tursunali qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA TA’LIM – TARBIYA BERISH	46
13.	D.B.Axmedova Yoqubova Bonuoy Alisher qizi Yoqubova Hilola Asrorjon qizi 2-SINF “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	51
14.	Yugay Yevgeniya Viktorovna Ibroximova Rayxona DOES TEACHER’S WRITTEN FEEDBACK HELP UNIVERSITY STUDENTS TO IMROVE THEIR WRITING SKILL?	57
15.	G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li	60

	THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES	
16.	Karimova Muattar ACTUAL PROBLEMS AND METHODOLOGY OF MODERN COMPARATIVE TYPOLOGY	65
17.	Қобилжон Якубович Акбаров “САДОИ ФАРҒОНА” ГАЗЕТАСИДА XX АСР БОШЛАРИДА МАҲАЛЛИЙ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	68
18.	ЗАМОНАВИЙ МЕНЕЖМЕНТНИНГ ФУНДАМЕНТАЛ АСОСИ Шорасулова Дилноза Хасан қизи	76
19.	MUTAFAKKIRLAR IJODINI O‘RGATISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH To'raqulova Hilola Xo'janazarovna	81
20.	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH Bo‘riyeva Marhabo Fayziyevna	89
21.	МУЛЬТИМЕДИА КАК СРЕДСТВО ПОВЫШАЮЩЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ Алексеева Анна Александровна	92
22.	KIMYO FANI DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Turg‘unpo‘latova Shodiya Rustamjon qizi	96

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 101 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022